



**O'ZBERISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**
SAMARQAND VETERINARIYA MEDITSINASI INSTITUTI

Agronomiya fakulteti

O'simlikshunoslik kafedrasи

5410200 - Agronomiya (Dehqonchilik mahsulotlari bo'yicha) ta'lif yo'naliishi

Bitiruvchisi 4 – kurs talabasi Jaxonova Marg'ubanining

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: "Makkajo'xorining o'sishi va rivojlanishiga azotli
o'g'itlarning ta'siri".**

Ilmiy rahbar: dotsent

B.T. Mavlonov

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga qo'yildi.

O'simlikshunoslik kafedrasи

mudiri, professor

Agronomiya fakulteti

Nº -sonli yig'ilish

dekani,dotsent

_____ N.Xalilov

_____ D.S.Normurodov

"__" ____ 2018yil

"__" ____ 2018yil

SAMARQAND - 2018 y

Samarqand veterinariya meditsinasi instituti “O’simlikshunoslik”

kafedrasining «_____» sonli majlis

BAYONIDAN KO‘CHIRMA

«___» 2018 yil

Samarqand shahri

Qatnashdilar: kaf. mudiri, professor N.Xalilov,
dotsentlar D.S.Normurodov, B.T.Mavlonov,
assistentlar V.I.Ismoilov, A.Rahimov,
O.M.Sulaymonov, G.U.Otayarova, M.A.Atamurodova,
M.Yu.Shernazarov, J.B.Fayzimurodov, A.J.Omonov,
B.H.Qo’ldoshov, Sh.Aliboyev, kabinet mudiri
M.Azizova hamda kafedrada bitiruv malakaviy ish
bajargan talabalar

Kun tartibi

5410200 - Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi Jaxonova Marg’ubaning **“Makkajo’xorining o’sishi va rivojlanishiga azotli o’g’itlarning ta’siri”** mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi muhokamasi

So‘zga chiqdi: Kafedra mudiri, professor N.Xalilov O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta Maxsus ta’lim vazirligining 2010 yil 9 iyundagi 225 – sonli “Oliy o‘quv yurtlari bakalavrularining bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo‘yiladigan talablarni tasdiqlash to‘g’risida” gi buyrug‘iga asosan har bir bitiruv malakaviy ish kafedrada muhokama qilingandan keyin DAK himoyasiga tavsiya etilishi kerakligini aytib o’tdi. Shunga asosan bugun 5410200 - Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi Jaxonova Marg’ubaning **“Makkajo’xorining o’sishi va rivojlanishiga azotli o’g’itlarning ta’siri”**. mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi muhokamasini eshitamiz.

Shundan so‘ng Jaxonova Marg’uba o‘z bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbliji, ahamiyati, ilmiy yangiligi, olingan natijalar va qilingan xulosalar borasida ma’ruza qildi.

Ma’ruzachiga mavzu yuzasidan 5 – 6 ta savollar berildi va u berilgan savollarga atroflicha javob berdi.

Muhokamada N.Xalilov, D.S.Normurodov, B.T.Mavlonov, O.M.Sulaymonov, G.U.Otayarova, M.A.Atamurodovalar ishtirok etdilar

QAROR QILINDI

1. 5410200 - Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi Jaxonova Marg’ubaning **“Makkajo’xorining o’sishi va rivojlanishiga azotli o’g’itlarning ta’siri”**.mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi barcha ko‘rsatkichlari bo‘yicha DAK talablariga javob berishi inobatga olinib, u DAK da himoya qilish uchun tavsiya etilsin.

Majlis raisi, professor

Kotib

N.Xalilov

Sh.Aliboyev

M U N D A R I J A

K I R I Sh	4
I Adabiyotlar sharhi.....	5
1.1 Makkajo'xorining o'sishi va rivojlanishiga o'g'itlarning ta'siri	5
1.2 Makkajo'xori o'simligining kelib chiqishi, tarixi va klassifikasiyasi	17
1.3. Makkajo'xorining nav va duragaylari tavsifi.....	20
1.4. Dunyo bo'yicha makkajo'xorining ekin maydoni va o'rtacha don hosildorligi.....	20
1.5. Makkajo'xorining agrobiologik xususiyatlari va yetishtirish texnologiyasi.....	25
II TADQIQOT NATIJALARI.....	35
2.1. O'simlik balandligi va birinchi so'tani joylashishiga azotli o'g'it me'yorlari hamda ko'chat qalinligini ta'siri.....	35
2.2. Sherzod navi so`ta o'lchamlari hamda so'tadagi ko'rsatkichlariga azotli o'g'it me'yorlari va ko'chat qalinligini ta'siri	37
2.3. Sherzod navi urug' xususiyati va hosildorligiga azotli o'g'it me'yorlari va ko'chat qalinligini ta'sir.....	39
III O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasida qishloq xo'jaligi sohasi xodimlariga belgilagan vazifalari.....	44
IV 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha xarakatlar strategiyasi.....	46
V Hayot faoliyat xavfsizligi tadbirlari.....	48
VI Qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishdagi ekologik muommolar... Xulosalar va takliflar	53
Foydalilanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	55
Ilovalar (internet ma'lumotlari).....	59

KIRISH

Mavzuning dolzarbliji. O'zbekistonda fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jalik ekinlari assortimentini ko'paytirish, aholining talabi ortib borayotgan ekinlar, masalan makkajo'xori maydonlarini kengaytirish, har qaysi tuproq va iqlim hududi uchun mos navlarini tanlash, ularni o'stirish texnologiyasini ishlab chiqish, fermer xo'jaliklari bilan mahsulot topshirish bo'yicha qayta ishlash korxonalari o'rtaida shartnomalar tuzish muhim ahamiyatga ega.

Makkajo'xori muhim donli va yem-xashak ekin bo'lib jahon dehqonchiligidagi ekiladigan maydoni bo'yicha uchinchi va hosildorligi bo'yicha donli ekinlar orasida birinchi o'rinni egallaydi. Aholining oziq-ovqatga bo`lgan ehtiyojlarini qondirishda, chorvachilikni kontsentrat va omuxta em, sanoatning ayrim sohalarini xomashyo bilan ta`minlashda donli ekinlar muhim o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha 2017-2021 yillarga muljallangan Xarakatlar strategiyasida «...qishloq xo'jaligi ishlab chikarishini izhil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustaxkamlash, resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish...» ga alohida e'tibor berilgan.

Don etishtirishni ko`paytirish, qishloq xo`jaligidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin don etishtirishni ko`paytirish, mamlakat aholisi, xalq xo`jaligining donga bo`lgan talabini respublikada etishtirilgan don hosili hisobiga qondirish bo'yicha bir qator amaliy ishlar bajarildi, farmonlar, qonunlar qabul qilindi.

O'zbekistonda makkajo'xidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar juda ham kam nomda bo'lib, u asosan silos uchun, so'tali ko'k massa olish va omuxta yem ishlab chiqarish xom-ashyosi sifatida don uchun yetishtiriladi. Makkajo'xori o'zining mahsuldarlik potensiali va ozuqaviylik qiymati bo'yicha barcha donli ekinlaridan ustun turadi.

Mamlakatimiz dehqonchilik qilish bo'yicha geografik jihatdan juda qulay joylashgan bo'lib, sug'oriladigan erlardan foydalanish samaradorligini oshirish

imkoniyati mavjud, ya`ni yil davomida erdan ikki marta hosil olish mumkin. Kuzgi boshoqli don ekinlari hosili yoz oylarining ikkinchi yarmigacha yig'ishtirib olingandan keyin, yana kech kuzgacha 120-130 kunlik davrda takroriy ekin sifatida makkajo`xoridan yuqori don va poya hosili olish mumkin.

Sug'oriladigan yerlarda qishloq xo'jalik ekinlari bilan band bo'lgan maydonlardan asosiy o'rinni, boshoqli don ekinlari va g'o'za maydonlari tashkil etadi. Oxirgi yillarda boshoqli don ekinlarini sug'oriladigan yerlarda bir million hektar, hatto undan ham ko'proq maydonga ekilishi doimiy bo'lib qoldi. Shuning bilan bir qatorda beda, don va silos uchun makkajo'xori hamda boshqa ozuqabop ekinlar ekiladigan maydonlar qisqartirildi.

Tadqiqot vazifalari. Makkajo'xorining Sherzod navi

- Don hosildorligiga turli azotli o'g'it me'yorlarini ta'sirini;
- O'simlik balandligi, rivojlanishi va urug' hosildorligi;

Makkajo'xorining Sherzod navi don hosildorligiga azotli o'g'it me'yori maqbul bo'lganda yuqori natijalarga erishildi. Azotli o'g'it me'yori 1000 ta don og'irligi, donni pishish davri, urug' unuvchanligi, ko'karish kuchi, o'simliklarning ko'chat saqlanuvchanligi va don hosildorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

1-Bob. ADABIYOTLAR ShARHI

I.1 . Makkajo'xorining o'sishi va rivojlanishiga o'g'itlarning ta'siri.

Donli ekinlar O'zbekiston Respublikasining xalq xo`jaligida katta iqtisodiy, ishlab chiqarish ahamiyatiga ega. Aholining oziq-ovqatga bo`lgan ehtiyojlarini qondirishda, chorvachilikni kontsentrat va omuxta em, sanoatning ayrim sohalarini xomashyo bilan ta`minlashda donli ekinlar muhim o`rinni egallaydi.

Don etishtirishni ko`paytirish, qishloq xo`jaligidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin don etishtirishni ko`paytirish, mamlakat aholisi, xalq xo`jaligining donga bo`lgan talabini respublikada etishtirilgan don hosili hisobiga qondirish bo`yicha bir qator amaliy ishlar bajarildi, farmonlar, qonunlar qabul qilindi.

Makkajo`xorini Markaziy Osiyo davlatlarida kuzgi va bahorgi boshoqli don ekinlaridan keyin, shuningdek g'o`za-beda-makkajo`xori va g'o`za-makkajo`xori almashlab ekish tizimida ham ekiladi.

Dehqonlarimiz makkajo`xorini qadimdan, ya`ni o`tgan asrning 20-yillaridan takroriy ekin sifatida kuzgi bug'doy yoki arpadan keyin ekib, undan yuqori don va poya hosili olishgan. Lekin, o`sha paytlari texnikaning rivojlanmaganligi sababli takroriy makkajo`xori maydoni juda kam bo`lgan. Takroriy ekin sifatida qator orasiga ishlov berilmaydigan, asosan yoppasiga ekiladigan sudan o`ti, no`xat, tariq, marjumak, mosh, loviya va boshqa ekinlar ko`proq maydonlarga ekilgan.

Mamlakatimiz dehqonchilik qilish bo`yicha geografik jihatdan juda qulay joylashgan bo`lib, sug`oriladigan erlardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud, ya`ni yil davomida erdan ikki marta hosil olish mumkin. Kuzgi boshoqli don ekinlari hosili yoz oylarining ikkinchi yarmigacha yig`ishtirib olingandan keyin, yana kech kuzgacha 120-130 kunlik davrda takroriy ekin sifatida makkajo`xoridan yuqori don va poya hosili olish mumkin.

Hozirgi kunda O'zbekiston sharoitida makkajo`xorini bahorda ekish uchun Vatan, O'zbekiston 601 ESV duragaylari (don hosili 100-110 ts/ga) va takroriy

ekin sifatida ekish uchun O`zbekiston 306 AMV va Qorasuv 350 AMV duragaylari (don hosili 60 ts/ga) tavsiya etilgan (Massino, 2005).

Makkajo`xori takroriy ekin sifatida nafaqat respublikamizda balki xorijiy davlatlarda ham etishtiriladi va yuqori don va ko`k massa hosili olinadi.

Makkajo`xori katta miqdordagi organik massa hosil qiladi va uni yaratish uchun juda ko`p mineral oziq elementlar sarflaydi. U boshqa donli ekinlarga nisbatan 2-3 marta ko`p oziq elementlarni o`zlashtiradi. Makkajo`xori 1 tonna don hosil qilish uchun 34 kg azot, 12 kg fosfor va 20 kg kaliy sarflaydi: ko`rinib turibdiki, o`rtacha 50 ts/ga xosilda makkajo`xori tuproqdan 170 kg azot, 60 kg fosfor va 100 kg kaliy olib chiqadi va bu o`zlashtirish jarayonida o`simlikga bir xilda tushmaydi (A.I.Smakin, 1961).

Azot elementi barcha o`simliklar uchun muxim xisoblanib quruq massaning taxminan 1-3% ni tashkil etadi va u o`simliklarning o`sib rivojlanishi uchun muxim xisoblangan moddalar ya`ni oqsillar nukleroteidlar, xlorofill, alkaloidlar, fosfatidlar va boshqalar tarkibida uchraydi.

Azot ko`plab organik birikmalar tarkibiga kiradi. Azot tanqisligida makkajo`xori o`sishi va rivojalanishi, xlorofil hosil bo`lishi sekinlashadi, fotosintez va oqsil almashishi kamayadi (N.I.Volodarskiy, 1975; K.P.Magnitskiy, 1972). Maysa hosil bo`lishining dastlabki ikki xafasida makkajo`xorini azotga ochiqishi, o`simlik so`ta hosil qilishida salbiy ta`sir ko`rsatadi (V.V. SHtefan, 1981). Sikalo N.G. (1968) izlanishlarida azot tanqisligi makkajo`xori erkak va urg`ochi gullarining gullahini ba`zan 8-12 kungacha cho`zilishiga olib kelishi qayd etilgan. O`sish jarayonining birdan susayish holati, bo`lg`usi hosilning so`ta kabi qimmatli ozuqa tarkibini tashkil qiluvchi barglarning vaqtliroq to`kilishiga olib keladi (K.P.Magnitskiy, 1972).

Makkajo`xori hosiliga katta ijobiy ta`sir ko`rsatuvchi bu va boshqa salbiy ko`rinishlarni azotli o`g`it kiritish yo`li bilan bartaraf etish mumkin (E.N.Fol`kman, 1983; V.T.Kurkaev, 1964; N.G.Naydin, 1965). Biroq o`simliklar tuproqdagagi ortiqcha qoldiq azotni o`zlashtirishi mumkin. Tuproqdagagi ortiqcha azotning kontsentratsiyasi inobatga olinmay, ekish bilan yuqori me`yorda azotli o`g`it berilganda maysalarning unib chiqishi kechikadi va ular siyrak hamda

nimjon bo`lib qoladi (N.I.Volodarskiy, 1975; N.G.Sikalo, 1968). Azotli o`g`itni juda oshirilgan me`yori o`simplik so`tasiga nisbatan vegetativ massasining kuchli rivojlanishiga, yotib qolishga moyilligining, transpiratsiyaga suv sarfining kuchayishiga va pishishning kechikishiga olib keladi (I.B. Mosolov, 1979; K.Neriyag, F.Lyudtsekke, 1974). Bu holatda o`simplik to`qimalarda nitratli azotni to`planishi va u zaharlanish darajasigacha oshishi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi (A.I.Vasil'ev, 1979;).

Umuman makkajo`xori etishtirishda azotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u tuproqda xamma vaqt minimum faktorlardan biri bo`lib, hosil ko`rsatkichini belgilaydi (N.I.Volodarskiy, 1975). Makkajo`xori tuproq azotini ammiak va nitrat shaklida o`zlashtiradi. SHunga bog`liq ravishda angliyalik tadqiqotchilarni ko`rsatishicha, o`simplik yosh, dastlabki o`sish davrida ammoniyli azotni, keyingi qariroq davrida zarur bo`lgan azotni taxminan 90 % ini nitrat holda o`zlashtiradi (E.N.Fol'kman, 1983).

O`simplikning azot o`zlashtirishi maysa unib chiqqandan keyin dastlabki davrida minimal bo`lsa, bo`yiga o`sishi bilan paralel ravishda oshib boradi (K.P.Afendulov, 1966; J.J.Hanway, 1962). Sikalo N.G. (1968) ma`lumotlariga ko`ra, makkajo`xori urug`idan unib chiqqandan 7-8 barg hosil bo`lguncha, bu davrda nisbatan juda sekin o`sishi sababli, butun vegetatsiya mobaynidaga o`zlashtiradigan umumiyligi azotning 1,5-2 % ini tashkil qiladi. K.P.Afendulov (1966) o`simplikning eng asosiy azot bilan ta`minlanishi zarur bo`lgan davr 4-6 barg chiqargandan so`taning tumshug`chasini qurishigacha bo`lgan oraliq bo`lib, bu vaqtda o`simplik umumiyligi azot miqdorining 72 % ini o`zlashtiradi deb hisoblaydi. O`simplikning bu fazalarda azotni jadal o`zlashtirishi vegetativ va generativ organlarining kuchli oshishi bilan bog`liq (N.G. Sikalo, 1968).

Azotni maksimal darajada yutilishi, qator mualliflarning (V.D.Pannikov, V.G.Mineev, 1977; A.I.Simakin, 1961; V.V. SHtefan, 1981) fikricha, sulton chiqarishdan taxminan ikki xaftha oldin kuzatiladi, boshqa ishlarda (N.I. Volodarskiy, 1975; N.K.Peterson, E.R.Purvis, 1961) u o`simplikning gullash davri bilan bog`liq.

Makkajo`xori o`simgida azot o`zlashtirilishi donning to`liq pishishigacha davom etadi (K.P.Afendulov, 1966; V.D.Pannikov, V.G.Mineev, 1977), V.T.Kurkaev (1964) ko`rsatishicha uni yuqori darajasi donning mum pishish davrigacha bo`ladi. Ba`zi bir ishlarda o`simlikning azot bilan oziqlanishining tugashi biroz oldingi davrlariga to`g'ri keladi (P.I.Susidko, V.S.TSikova, 1978; N.G.Sikalo, 1968). O`simlikda ko`pchilik modda almashinuv jarayonlari bevosita fosfor ishtiroki bilan boradi. Fosfor makkajo`xori o`simligi ildizlarini hosil bo`lishini rostlaydi va u tezda tuproqni chuqur qatlamlariga kirib borishini ta`minlaydi va noqulay sharoitlarda tuproqdagagi zahira namlikdan foydalanishiga yordam beradi (A.I.Simakin, 1961). O`simlikni o`sish jadalligi, so`ta hosil bo`lishi va pishishi fosfor bilan oziqlanish darajasiga bog'liq (N.I.Volodarskiy, 1975; V.V.SHtefan, 1981).

Tuproqda fosfor tanqisligida makkajo`xorining azot o`zlashtirishi sekinlashadi, oqsil sintezi susayadi, ildiz va vegetativ massasining o`sishi keskin susayadi K.P.Magnitskiy, 1972; N.G.Sikalo, 1976). O`simlik o`sishining dastlabki davrida fosforga talabi kuchli bo`lganda rivojlanayotgan ildiz tizimining o`zlashtirish qobiliyatining pastligi tufayli fosfor etishmovchiligin, keyingi muddatlarda fosfor kiritish bilan to`liq to`g'rilib bo`lmaydi (I.B.Mosolov, 1979; P.V.Nosov, 1969). Volodarskiy N.I. (1975) ma`lumotiga ko`ra, oshirilgan darajada fosforli oziqlanishi makkajo`xori o`simligini rivojlanishini tezlashtirib, don va vegetativ massasini bir muncha darajada pasaytiradi.

Makkajo`xorining fosfor o`zlashtirishi urug'dan unib chiqqan vaqt dan boshlab, don to`liq pishib etulguncha o`simlikning butun vegetatsiyasi mobaynida davom etadi (K.P.Afendulov, 1966; V.D.Pannikov, V.G.Mineev, 1977; A.I.Simakin, 1961; N.G.Sikalo, 1976). SHtefan (1981) ko`rsatishicha, tuproqda fosfor miqdori past bo`lganda o`simlikka o`zlashtirilishi so`ta hosil qilish davriga kelib tugaydi. Bu yuqorida ko`rsatilgan holatlarda makkajo`xori hosilini shakllanishida fosforning roli juda muhim hisoblanadi. YOsh o`simliklarning fosfor bilan ta`minlanganligiga talabi kuchli bo`lganda ham 4-6 barg chiqarguncha umumiyl foydalangan element miqdorining faqat 0,12 % ini o`zlashtiradi (K.P.Afendulov, 1966). Fosforning o`simlikka aktiv o`zlashtirilishi 4-6 barg hosil

qilishida boshlanib, donning sut-mum pishish fazasida eng maksimal darajaga etadi (N.G.Sikalo, 1976). Bunda, doning sut-mum pishishdan to`liq pishish davr oralig'ida umumiyl foydalangan fosfor miqdorining 30 % ini o`zlashtiriladi (K.P.Afendulov, 1966). Kurkaeva V.T. (1964) tadqiqotlarida, makkajo`xori fosfordan maksimal foydalanishi o`simlikning gullash davriga to`g'ri keladi. Azot bilan etarlicha darajada ta`minlanganga nisbatan azot tanqisligi sharoitida fosforni o`zlashtirilishi 30 % ga pasayishi mumkin (J.J.Hanway, 1962). Bu esa azotli o`g'it makkajo`xori o`simligi tomonidan fosforni o`zlashtirishini yaxshilashidan dalolat beradi.

Kaliy azot va fosfor kabi makkajo`xori organik birikmasiga tarkibiga kirmaydi, u o`simlik xujayra shirasida suvda deyarli to`liq eriydigan tuzlar xolida bo`ladi (I.B. Mosolov, 1979; L.M.Tomson, F.R.Trou, 1982). SHunday bo`lsa ham makkajo`xori kaliy ko`p miqdorda talab qiladi va uning hayotida katta rol o`ynaydi. Kaliy makkajo`xori o`simligida uglevodlar almashinuvida va tashilishida aktiv ishtirok etadi (K.P.Magnitskiy, 1972), fotosintez jarayonida oqsil va aminokislolar hosil bo`lishi va almashinishida ijobiy ta`sir ko`rsatadi (N.I.Volodarskiy). Makkajo`xorini kaliy bilan etarli darajada ta`minlanganligi qurg'oqchilik va zamburug' kasalliklari qarshi kurashishiga yordam beradi (I.B.Mosolov, 1979; K.Neriyag, F.Lyudtsekke, 1974).

Tuproqda kaliy etishmovchiligidagi makkajo`xori vegetativ organlarining o`sishi sekinlashadi va ildiz tizimining hayot faoliyati yomonlashadi (N.G.Sikalo, 1976; K.Koch, K.Mengel, 1974), o`simlik poyasi va yon ildizlari zaiflashib o`simlik yotib qolishga moyilligi oshadi (V.C. Heibhardt, J.T. Murdock, 1965). K.P.Afendulov (1966) ta`kidlashicha, o`simliklar kaliy bilan etarli darajada ta`minlanmaganida nafas olish jaryoni buziladi va uglevod o`rniga oqsilni sarflaydi. Makkajo`xorini kaliy bilan ortiqcha oziqlantirish o`sishi, rivojlanishi va hosildorligiga sezilarli ta`sir etmaydi (N.I.Volodarskiy, 1975). Makkajo`xori vegetatsiyasining dastlabki davrlaridan kaliyni juda intensiv o`zlashtira boshlaydi ya`ni o`simlik maysalar ko`rina boshlagan paytdan boshlanadi (V.U.Pchelkin, 1966; V.V.SHtefan, 1981). Makkajo`xori umumiyl foydalangan kaliy miqdorini asosiy qismini ya`ni 82 % ini o`simlik 4-6 barg va sulton gullagan vaqt oralig'ida

o`zlashtiradi (K.P.Afendulov, 1966). Asosan makkajo`xorining kaliy bilan oziqlanishi sulton chiqarishidan 2 xafta oldin kuchayadi va bu faza boshlanishi bilan uni o`simplikda umumiyligi to`planishi maksimal ko`rsatkichga etadi (V.T.Kurkaev, 1964; N.G.Sikalo, 1977). O`simplikka kaliyning o`zlashtirilishi azot va fosforga nisbatan ertaroq to`xtaydi. Ko`pchilik tadqiqotchilar makkajo`xori kaliyni o`zlashtirishi donning sut-mum pishish fazasida (P.I.Susidko, V.S.TSikova, 1978), biroq ma`lumotlar borki, o`simplik kaliyni o`zlashtirishi gullay boshlagan fazaga kelib to`xtaydi deb xisoblaydilar (N.I.Volodarskiy, 1975; V.T.Kurkaev, 1964). Makkajo`xorini kaliya talabi azot bilan oziqlantirish darajasiga bog'liq, azot taqchilligida kaliyni o`zlashtirilishi ham sezilarli kamayadi (I.V.Mosolov, E.S.CHernova, 1976).

Makkajo`xori hosildorligini ko`paytirish va tuproq unum dorligini oshirishga yo`naltirilgan agrotexnik tadbirlar tizimida o`g'itlarni qo`llash alohida ahamiyat kasb etadi.

Makkajo`xori yuqori hosilli ekin bo`lib, hosildorligi bo`yicha boshqa donli va em-xashak ekinlariga nisbatan ustun turadi. Mamlakatimizning sug`oriladigan erlarida bahorda ekiladigan makkajo`xori navlaridan har gektaridan 40-50 ts don va 500-700 ts poya hosili olinmoqda. Kuzgi boshoqli don ekinlaridan keyin takroriy ekin sifatida ekilgan makkajo`xoridan o`rtacha 25-30 ts don va 200-250 ts poya hosili olinmoqda. Bu esa boshqa makkajo`xori etishtiradigan davlatlarga nisbatan 2-2,5 barobar kamdir (Ataboeva, Umarov va boshqalar, 2000).

Surxondaryo viloyati tuproqlari sharoitida L.A.Spijevskaya va M.Tojiev (1973) larning olib borgan izlanishlarida kuzgi bug'doydan so`ng ang'izga makkajo`xori ekilganda 2 marta hosildan 89,6 tsentner don hosili olishga erishilgan.

M.N.Nasridinov va M.Qurbanovlar (1980) tomonidan Buxoro viloyatining sho`rlangan tuproqlari sharoitida olib borilgan izlanishlarda esa kuzgi bug'doy va undan so`ng makkajo`xori ekilganda jami 2 hosildan 117,5 tsentner don, arpa va makkajo`xoridan 115,3 tsentner don, javdar va undan so`ng makkajo`xoridan esa 101,4 tsentner don hosili olingan bo`lsa, somon va ko`k poya miqdori gektariga 443,5-445,4 tsentner oralig'ida bo`lgan.

Mutaxassislarining xisob-kitoblariga ko`ra, Rossiyaning sug`oriladigan erlarda etishtiriladigan makkajo`xorini umumiylar hosildorligining 40 % mineral o`g`itlar hisobiga to`g`ri kelar ekan. Bunda, ilmiy asoslangan tavsiyanomalarga ko`ra, mineral va organik o`g`itlarni qo`llash o`rtacha Rossiya davlati bo`yicha makkajo`xorining hosildorligini 30 % ga oshirishi ko`rsatilgan (N.X.Dudina, E.A.Panova, M.P.Petuxov, 1991). Keltirilgan makkajo`xorini o`g`itlash tizimining ilmiy asoslashning rolini oshirishga bag`ishlangan ma`lumotlar, yana bir bor bizning izlanishlarimizni dolzarbligini ko`rsatadi. Makkajo`xorini hosildorligining oshishiga o`g`itlarning sezilarli ijobjiy ta`siri ko`pchilik tadqiqotchilarning ishlarida keltiriladi, biroq ularning fikrlari aniq bir holatlarda o`g`it me`yorlarining samarasi bo`yicha o`zaro sezilarli farq qiladi (D.A.Altunin, L.N.Salmin, L.T.SHusharina, 1983; V.A.Es`kov, A.P.Kuz`mina, A.F.Stulin va boshqalar, 1979; N.G.Naydin, 1965). Ostrovlyanchik M.P. va boshqalar (1971) ma`lumotlariga ko`ra, Altay o`lkasining ishqoriylangan qora tuproq zonasiga uchun eng ko`p ko`k massa qo`shimcha xosil va maxsulot chiqishi, $N_{60}P_{45}K_{45}$ solingan tajriba variantida qayd qilingan. Har bir ta`sir etuvchi o`g`it moddasi hisobiga 92 kg o`simlik massasi olingan. Krasnodar o`lkasining janubiy va markaziy tog` oldi ishqoriy qora tuproqlarida makkajo`xorida mineral o`g`it qo`llash bo`yicha tavsiyanomada N - 90 va 80 kilogramm qilib belgilash ko`zda tutilgan (V.D.Pannikov, 1981).

Sikalo N.G. (1976) keltirishicha, karbonatli, kam ishqoriy va ishqoriy qoratuproqli va podzollashgan o`rmon tuproqlarida azotning nitratli va ammiakli shakllari eng samarali ekanligi aniqlangan. U karbonatli qora tuproqqa solinganda makkajo`xori doni hosiliga kuchli ta`sir ko`rsatadi. O`rganilgan barcha tuproq tiplarida azotning nitrat shakli qo`llanilgan variantlarda eng kam don hosili olingan va faqat azot solinmagan variantdan yuqori bo`lgan. Azotning ammiakli nitrat shakli qo`llanilganda makkajo`xorining bitta o`simligida karbonatli qora tuproqda – 63, ishqoriylanganda – 107, slitda – 70, podzollashganda 76 g va nitrat shaklida muvofiq ravishda 17, 35, 30 va 21 grammni tashkil qildi.

Izlanishlar makkajo`xori doni hosiliga ishqoriylangan qora tuproqlarda ammiakli suv qo`llash ijobjiy ta`sir qilganini ko`rsatadi. ekish oldidan gettariga 20 kg miqdorida qo`llaganda, 40 kg nisbatan yuqori hosil olishni ta`minlagan.

Qo`shimcha don hosili 5,6 – 7,9 ts/ga ni tashkil etgan.Rostov tajriba stantsiyasining oddiy qora tuproqlarida o`tkazilgan dala tajribalari natijalariga ko`ra, juft xolda hisoblangan turi bo`yicha eng yaxshisi azotli – fosforli o`g`it bo`lib, makkajo`xoridan maksimal qo`shimcha hosil to`liq mineral o`g`itlarni kuzda $N_{120}P_{90}K_{90}$ solinganda olish mumkinligi aniqlangan (V.E.Kizyakov, A.F.Stulin, 1977).

Gladish O.T. (1980) tajribalarida makkajo`xori hosildorligini umumiyl oshishiga har qaysi elementning mineral oziqlanishdagi ta`siri aniqlangan. Bunda qo`shimcha hosilga N ning ulushi 47 %, R – 35 %, K – 18 % to`g`ri kelgan.

Naydin N.G. (1965) ta`kidlashicha, makkajo`xori etishtiriladigan asosiy qishloq xo`jalik tuproqlarida ko`proq qo`shimcha hosil azotli o`g`itlar hisobiga to`g`ri keladi.

Azotli o`g`itlarning makkajo`xori xosilini oshirishi bo`yicha ma`lumotlar bir qator tadqiqotchilarining ishlarida keltirilgan (E.N.Folkman, 1983; V.T.Matkevich, 1984). Keltirilgan misollardan kelib chiqib, asossiz ravishda oshirilgan azot miqdori qo`shimcha xosil bilan o`zini oqlashi to`g`risida xulosa qilish kerak emas. Bu bir qator sabablar, zonaning namgarchilik sharoiti, olinadigan mahsulot sifati, o`g`it qo`llashning iqtisodiy ko`rsatkichlari va boshqalar bilan bog`liq. E.V.Agofonova va A.A.Batakova (2000) izlanishlarida azotning 120 kg/ga dan yuqori miqdorlari makkajo`xori hosildorligini oshishiga olib kelmagan.

Rossiya va Ukrainianing janubiy o`lkalarida Stavropol' va Krasnodarda, Volgograd va Rostov viloyatlarida takroriy ekin sifatida ekilgan makkajo`xoridan 250-340 ts/ga ko`k massa hosili olingan (Volna, 1974; Tishko, 1975; Bukin, Bukina, 1976; Babich, 1977).

V.I. Babich (1977) ma`lumotiga ko`ra, Kabardino-Balkar, CHecheniston-Ingushetiya va SHimoliy Osetiya respublikalarida takroriy ekin sifatida etishtirilgan makkajo`xoridan yuqori don va poya hosili olish mumkin.

V.A. Ushkarenko va boshqalar (1979) keltirishicha, Ukrainianing janubiy tumanlarida takroriy ekin sifatida makkajo`xori, kungaboqar, no`xat va vika etishtirilgan.

Makkajo`xori takroriy ekin sifatida Bolgariya, Moldaviya, Polsha, Ruminiya, CHexiya, Slovakiya, Germaniya, Frantsiya va AQSH kabi bir qancha xorijiy davlatlarda ham etishtiriladi.

A.I. Massino va S. Qodirxonov (2006) larning ta`kidlashicha, so`nggi vaqtarda Respublikamizning nav sinash maydonlarida AQSH, Germaniya, Frantsiya, Vengriya, Serbiya va Moldaviya kabi xorijiy davlatlardan keltirilgan makkajo`xorining tezpishar duragaylarini kuzgi g'alla ekinlaridan keyin etishtirish masalasi o`rganilgan: 1997-2002 yillar davomida respublikamiz dalalarida ushbu davlatlardan keltirilgan 169 ta nav va duragaylar sinovdan o`tkazilgan. eng yaxshi duragaylar 83-97 kunda pishib etilib, gektaridan 50-57 ts don hosili olingan. SHu bilan bir vaqtda mahalliy O`zbekiston 306 AMV duragayi 93-96 kunda pishib etilib, don hosili 87 ts/ga ni tashkil etgan.

Makkajo`xorining o`ziga xos biologik xususiyatlari-uni takroriy ekin sifatida ekib yuqori hosil olish imkoniyati mavjud. U baquvvat rivojlangan ildiz tizimiga ega, bargi yirik va ko`p, yirik reproduktiv qismlarga ega bo`lib, shular hisobiga yuqori hosil olinadi.

YOzda ekilgan makkajo`xori bahorda ekilganiga qaraganda tez o`sadi va sezilarli darajada vegetatsiya davri qisqaradi. Bu jihat katta amaliy ahamiyatga ega, chunki makkajo`xoridan so`tali oziqaga boy ko`k massa hosili olish imkoniyati mavjud. erta muddatlarda ekilgan makkajo`xoridan esa kuzgi sovuqlar tushguncha etilgan don hosili olish ham mumkin (Zubenko, 1963; Azimov, 1961; Azimov, Urmanova, SHupakovskiy, 1963).

X. Azimov (1978) ta`kidlashicha, takroriy ekinlarni etishtirishning asosini sug`oriladigan dehqonchilik mintaqada etarli samarador issiqlikning mavjudligi belgilaydi.

Makkajo`xorining turli nav va duragaylarining issiqlikka bo`lgan talabi bir xil emas. Uning miqdori pishar nav va duragaylarda $1758-1830^{\circ}\text{S}$, o`rtapishar nav va duragaylarda $2158-2208^{\circ}\text{S}$ va kechpisharlarda $2657-2954^{\circ}\text{S}$ gacha o`zgarib turadi.

Makkajo`xorini ang`izda va takroriy ekin sifatida etishtirishda ularning biologik xususiyatlarini, haroratning ekinning o`sishi, rivojlanishi va

hosildorligiga ta`sirini hisobgaolish zarur. Faqat shundagina takroriy makkajo`xoridan erta etiladigan va yuqori hosil olish mumkin.

O`zbekiston sharoitida ham turli tuproq-iqlim sharoitlari bilan bog'liq holda bir qancha olimlar va tadqiqotchilar tomonidan chuqur izlanishlar olib borilgan (Spijevskaya, Tojiev, 1996;).

Respublikamiz mustaqillikka erishganda so`ng qishloq xo`jaligini tubdan isloh qilish maqsadida xukumatimiz tomonidan ko`plab qonun va qarorlar ishlab chiqildi.

Davlatimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan ushbu qonun va qarorlarning asosiy negizini tuproqning muhofaza qiluvchi dehqonchilik yuritish tizimida tuproq hamda o`simliklarni oziqlanish va sug`orish tartiblarini samaradorligi, tuproq organik moddasi dinamikasi, begona o`tlarni nazorati, o`simliklar kasalliklariga qarshi kurash kabi masalalar tashkil qiladi.

SHuning uchun ham keyingi yillarda bu borada amalga oshirilayotgan kuzgi bug'doy va undan so`ng takroriy ekilayotgan makkajo`xori, soya, mosh va boshqa ekinlarga bog'liq holda bir qancha ilmiy yo`nalishdagi izlanishlar dastlabki natijalarni bermoqda va ushbu natijalar qishloq xo`jaligida o`z tasdig'ini topmoqda (Iminov, Xolikov, 2003; Xoliqov va boshqalar, 2003; Xasanova, Karabaev, 2003; Isaev, Boltaboev, 2003; Mirzajonov, Tojiboev, 2006; Allanov, SHeraliev, 2006; Xoliqov, 2007 va boshqalar).

Namangan viloyati tuproqlari sharoitida B.I.Isaev (2003) tomonidan olib borilgan izlanishlarida kuzgi bug'doyning «Maguz-3» va «Sanzar» navlari, makkajo`xorining «O`zbekiston -3064» navi ekilganda kuzgi bug'doyning «Maguz-3» navidan 56,0 ts/ga, «Sanzar» navidan 52,0 ts/ga don hosili, undan so`ng takroriy ekin sifatida ekilgan makkajo`xorining «O`zbekiston-3064» navidan esa 50-70 ts/ga don hosili olishga erishilgan. SHu bilan birga muallif bir yilda ikki marta don hosili olish uchun tezpishar ekin navlarini tanlash muhim degan xulosaga keladi.

O.Rahmatov va YA.Bo`riev (1996) larning Qashqadaryo viloyatining taqirsimon tuproqlari sharoitida bir yilda ikki marta don hosili olish uchun amalga oshirilgan izlanishlarida yalpi don hosili 3 yilda o`rtacha 115,6-120,0 ts/ga ni, don

va em-hashakdan olinadigan ozuqa birlik miqdori esa 200,5-224,7 ts/ga ni tashkil qildi.

Farg'ona viloyatining o'tloqi-bo'z, kuchsiz sho'rangan, og'ir mexanik tarkibli tuproqlarida esa bir yilda ikki don hosili olishni ilmiy tomonlama asoslab bergen X.YUsupjonov (1996) arpadan 58,4 ts/ga don hosili olib, undan so'ng takroriy ekin sifatida makkajo`xori don uchun ekilganda 57,5 ts/ga, jami bir yilda gektariga 115,9 tsentner don hosili olishga erishishgan. SHuning bilan birga mualliflar chorva ozuqa bazasini rivojlantirish uchun esa 95,0 ts/ga arpa poya somoni va 290 ts/ga makka poyasi etishtirishga erishgan.

M.T.Tojiev (2004) tomonidan Surxondaryo viloyati tuproqlari sharoitida olib borgan izlanishlarida esa boshoqli don ekinlari yig'ishtirib olingandan so'ng o'rta tolali g'o'zaning «YUlduz» navini, makkajo`xorini don va xashak uchun yoki mosh, soya va loviya etishtirish yaxshi samara bergen. Ushbu mualliflar tomonidan olib borilgan izlanishlarda kuzgi bug'doydan 42,8-45,0 ts/ga, arpadan 36,3-38,0 ts/ga don hosili olinib, ang'izga ekilgan makkajo`xoridan 60-61 ts/ga, loviyadan 23-24 ts/ga don hosili va g'o'zaning o'rta tolali «YUlduz» navidan esa 23,6-24,2 ts/ga paxta hosili olishga erishilgan.

B.M.Xoliqov va boshqalar (2003) larning Qashqadaryo viloyatining taqir tuproqlari sharoitida navbatlab ekishning 1:1 (g'o`za-g'alla), 2:1 (g'alla:g'o`za), 1:2 (g'alla:g'o`za) tizimlari ustida olib borgan ilmiy izlanishlarida tuproq unumdarligi almashlab ekishning 2:1 tizimida 1:2 tizimga nisbatan birmuncha saqlanib qolgan. Almashlab ekishning 1:1 (don:g'o`za) tizimida esa kuzgi bug'doydan keyin don-dukkakli ekin-mosh ekilishi tuproq unumdarligining oshishiga ijobiy ta`sirini ko`rsatgan.

Toshkent viloyatining tipik bo`z tuproqlari sharoitida F.Xasanova va I.Karabaevlar (2003) tomonidan olib borilgan izlanishlarda esa kuzgi bug'doydan so'ng tuproqqa turli xil ishlov berib soyaning «YUg» va makkajo`xorining «Uz-306» navlarida olib borgan izlanishlari natijalariga ko`ra, tuproq 28-30 sm chuqurlikda haydab soya ekilganda eng ko`p (26,5 ts/ga) hosil, makkajo`xorida esa 285,8 ts/ga ko`k massa olishga erishilgan.

Q.Mirzajonov va U.Tojiboevlar (2006) Farg'ona viloyatining o'tloqi, mexanik tarkibi o'rta soz, kuchsiz sho`rlangan tuproqlari sharoitida tuproqqa turli usulda ishlov berib olib borgan izlanishlarda freza omochi bilan haydalganda ko`proq hosil to`plangan, lekin umuman er haydalmay, faqat g'o`zapoyasini olib tashlashda kul'tivator 12-14 sm yumshatib chigit ekilganda freza usuliga nisbatan kamroq hosil olinsa ham, iqtisodiy jihatdan yaxshi natija ko`rsatdi.

YUqorida keltirilgan qisqacha adabiyotlar sharhidan shunday xulosaga kelish mumkinki, Respublikaning turli tuproq iqlim sharoitlarida olib borilgan izlanishlar o`z qimmatini yo`qotmasada, tuproqni muhofaza qiluvchi dehqonchilik yuritish tizimida tuproq hamda o'simliklarni oziqlanish va sug'orish tartiblarini samaradorligi, tuproq organik moddasi dinamikasi, begona o'tlarni nazorati, o'simliklar kasalliklari kabi masalalarini o`zaro ta`siri bo'yicha ilmiy ma'lumotlar etarli emas. SHu sababli, dehqonchilik yuritishni ushbu usulini tegishli iqlim va tuproq sharoitlariga moslab joriy etish uchun kerakli ilmiy izlanishlar olib borish zarur.

1.2.Makkajo'xori o'simligining kelib chiqishi, tarixi va klassifikasiyasi

Makkajo'xori (*Zea mays*) dunyo dehqonchiligida ekiladigan asosiy qishloq xo'jalik ekinlaridan biri hisoblanadi. Uning doni dunyodagi don balansida yetakchi o'rnlardan birini egallaydi. Makkajo'xori xalq xo'jaligida juda katta ahamiyatga ega bo'lib, undan uzoq yillardan buyon insoniyat oziq-ovqat va chorva mollari uchun ozuqabop ekin sifatida foydalanib kelmoqda.

Makkajo'xori oziq-ovqat, chorva uchun yem va sanoat uchun xom-ashyo sifatida xalq xo'jaligida keng qo'llaniladi. Makkajo'xorining barcha qismlari to'g'ridan-to'g'ri, shuningdek uning qayta ishlashdagi chiqindi mahsulotlari (yorma, kunjara va hokazolar) ishlatiladi.

Adabiyotlarda keltirilishicha, makkajo'xori donining tarkibida 65-70% uglevod, 8-12% oqsil, 4-8% moy, mineral tuzlar va E, V, A vitaminlari, ko'k

poyasi tarkibida 10-18% quruq modda, 0,2-3% moy, 0,4-0,7% oqsil, 6-10% kraxmal va 4% qand moddasi borligi aniqlangan.

Makkajo’xori yangi dunyoning juda qadimgi o’simliklaridan hisoblanadi. Uning vatani Janubiy Amerikadir. XII asrda Ispaniyaga olib kelib ekilgan. Bu yerdan Yevropa mamlakatlariga, Yevropadan esa Xitoy va Hindistonga tarqalgan. Meksikada arxeologik qazilmalarda makkajo’xorining 5000 yillik donlari topilgan.

Markaziy Osiyoga makkajo’xori XVIII-asr oxiri XIX-asr boshlaridan boshlab yetishtirila boshlandi. Musulmon mamlakatlari o’rtasida savdo-sotiq va diniy aloqalarning mavjudligiga asoslanib makkajo’xori ilk bor Amudaryo va Sirdaryo oralig’ida o’sha davrda keng miqyosda yetishtirilgan bo’lib, Kichik Osiyoga Eron va Afg’oniston orqali kirib kelgan deb taxmin qilinadi. “Makkajo’xori” shahar va jo’xori so’zlaridan olingan. Bu nom yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi, ya’ni musulmonlarning Makka va Madinaga qilgan haj safari chog’ida ushbu o’simlik karvonlar bilan Kichik Osiyodan bizga kirib kelgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida makkajo’xori ekiladi va bu mintaqaning tabiiy iqlim sharoiti, sun’iy sug’orish bilan undan yuqori hosil olishni ta’minlaydi. O’zbekiston, Qozog’iston va Qirg’izistonda bu ekindan 10 t va undan ortiq hosildorlikka erishgan ilg’or dehqonlar anchagina. Masalan: Qozog’istondan Olimjon Baxtiyev, O’zbekistondan N.Mamatqodirov va boshqalar har gektar makkajo’xori ekilgan maydondan o’rtacha 11-12 tonna hosilli don olganlar. (Komarskiy V.Yu..(34).

Eramizdan 4000 yil ilgari Amerika qit’asida yashagan barcha qabilalar makkajo’xoridan keng foydalanganlar, ular uchun bu ekin birdan-bir non ekini hisoblangan.

Makkajo’xori Yevropaga XV asrning oxirida olib keligan. Dastlabki vaqtarda u noyob ekin sifatida uy atrofini bezash uchun ekilgan. Ko’p vaqt

o'tmay makkajo'xori Fransiya, Italiya, Portugaliya mamlakatlarida avval oziq-ovqat, keyinroq yem-xashak yekini sifatida tarqalgan.

1899 yilda Stertevant tomonidan tavsiya yetilgan klassifikasiyaga ko'ra yendosperma va don morfologiyasi bo'yicha 7 ta kenja to'rga bo'linadi.

Tishsimon (*Zea mays L indentata*). Doni yirik, cho'zinchoq tepa uchida chuqurchasi bor, shakli otning tishiga o'xshaydi.

Endosperm donining yon tomonlarida shoxsimon, o'rtasida ipsimon bo'ladi. Doni asosan hayvon ozuqasi uchun va spirt olish uchun foydalilanildi.

Kremniysimon (*Zea mays Lindurata*). Doni yumshoq, yon tomondan sal siqiq, yaltiroq qattiq. Donning o'rtasi unsimon, endosperm bo'ladi. Kremniysimon makkajo'xori navlari donidan un tayyorlanadi. Poyasi ko'k massa holida mayin bo'ladi va hayvonlar yaxshi yeydi. Tezpishar navlari ko'p.

Kraxmalli (*Zea mays L amylacea*). Donining shakli kremniysimonga o'xshash, ichki qismi unsimon, endosperm bilan to'la shoxsimon endosperm yo'q yoki juda yupqa donida kraxmal 72-88 foiz, oqsil 12 foiz, yog' 5 foiz. Doni kraxmal, spirt va yog' ishlab chiqarish sanoati uchun yaxshi xom-ashyo hisoblanadi.

Shirin (*Zea mays L sacharata*). Doni yirik, usti tirish ustki qismi shoxsimon endosperm bilan to'la. Donida 18-20 foiz oqsil, 64 foiz uglevodlar, 8-9 foiz yog' bo'ladi. Sabzavot ekini hisoblanadi. (Guryev B.P., Kozubenko L.V.(21).

Yoruvchan (*Zea mays L everta*). Doni mayda, shoxsimon endosperm bilan to'la. Quruq doni qovurilganda yorilib bodroq hosil qiladi va hajmi 15-20 marta kattalashadi. Yorma va bodroq tayyorlash uchun foydalilanildi.

Yuqoridagilardan tashqari mumsimon (*Zea mays L ceratina*), po'stli (*Zea mays L tunicata*), kraxmalli-shirin (*Zea mays L amylacea- sacharata*) kenja turlari ham bor. O'zbekistonda asosan tishsimon va kremniysimon kenja turlar ekiladi. (Atabayeva X.N., Mascino I.V.7).

1.3.Makkajo'xorining nav va duragaylari tavsifi

Moldova 257 SV – Moldaviya makkajo`xori va jo`xori ilmiy tadqiqot institutining selektsion duragay hisoblanib, 2000 yildan respublikada takroriy ekin sifatida don va silosga ekin uchun Davlat reestriga kiritilgan.

Ikki tizmalarora duragay. O`simlikning o`rtacha balandligi 210 sm gacha, poyasi o`rtacha yo`g'onlikda, mustahkam, barglar soni - 14-15 ta. So`tasi konussimon, uzunligi 15-18 sm, don qatori 14-16 ta. So`tasining birikish balandligi 70-80 sm dan, so`tasining o`zagi qizil rangda. Doni yarim tishsimon, sariq, 1000 ta donining og'irligi 268-280 g. O`rtacha don hosildorligi -59-90 ts/ga va silos hosildorligi -350-450 ts/ga. O`zbekiston sharoitida 88-91 kunda pishadi. Duragayning don chiqishi -78-80%, yotib qolishga o`rtacha chidamli, mexanizm bilan o`rishga yaroqli. Kasallik va hashoratlar bilan kam zararlanadi.

Sherzod navi- Samarqand qishloq xo`jalik instituti va O`zbekiston O`simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari (T.E.Ostonaqulov, R.F.Mavlyanova, F.X.Abdullaev, SH.O.Burxonov) tomonidan navlash (Frantsiya UZ № 53/98 x Nagrada) va cheksiz yangi tanlash yo`li bilan yaratilgan. Tezpishar, o`suv davri 72-74 kun. O`simlik bo`yi 150-170 sm, yotib qolishga va pufakli qorakuyaga chidamli. Tuplanuvchan 3-4 ta yon poya hosil qiluvchan, ko`p so`tali. Har bir tupida 12-15 dona so`ta shakllanadi. So`ta vazni 120-200 gramm. Doni yirik, 1000 ta don massasi 330-350 gramm. Asosiy va takroriy ekinga mos. Don hosildorligi hektaridan 50-70 ts/ga. 2005 yilda Davlat reestriga kiritilib, rayonlashtirishga tavsiya etilgan.

1.4.Dunyo bo'yicha makkajo'xorining ekin maydoni va o`rtacha don hosildorligi.

Makkajo`xori dunyo dehqonchiligida ekiladigan asosiy qishloq xo`jalik ekinlaridan biri hisoblanadi. Uning doni dunyodagi don balansida yetakchi o'rnlardan birini egallaydi. Makkajo`xori xalq xo`jaligida juda katta ahamiyatga ega bo'lib, undan uzoq yillardan buyon insoniyat oziq-ovqat va chorva mollari uchun ozuqabop ekin sifatida foydalanib kelmoqda.

Makkajo’xori yetishtiradigan mamlakatlarda 90-yillarda makkajo’xori ekilgan maydon 109 ming gettarni, hosildorligi esa gettaridan 36,5 sentnerni, yalpi don hosili esa 472 mln tonnani, ya’ni hosildorlik bo’yicha dunyo don balansida uchinchi o’rinni egallaydi. Asrning boshlarida makkajo’xoridan don hosili yetishtirishni 500 mln tonnaga yetkazish nazarda tutilgan (Kurbanov G.K.21, Kuzmina A.22).

FAO (Xalqaro qishloq xo’jaligi va oziq-ovqat tashkiloti) ma’lumotlariga ko’ra 2002 yilda makkajo’xori dunyo bo’yicha 137 mln gettardan ziyod maydonga ekilgan, uning yalpi don hosili 600 mln tonnani tashkil qilgan. Ishlab chiqarilayotgan makkajo’xori donining 60 % dan ortig’i sanoatlashgan Shimoliy Amerika va Yevropa mamlakatlari ulushiga to’g’ri keladi, bu yerda uning hosildorligi o’rtacha 54-72 s/ga ni tashkil etadi.

Dunyo bo’yicha yetishtiriladigan makkajo’xorining 44 % i AQShda ishlab chiqariladi. 2002 yilda u yerda ushbu o’simlik 29 mln gettardan ziyod maydonga ekilgan bo’lib, uning don hosildorligi o’rtacha 89,3 s/ga ni tashkil etadi. FAO (FAO Production) hisobi bo’yicha makkajo’xori ekilgan maydon 2007 yilda 159,86 mln gettar, 2008 yilda 156,36 mln gettar, yalpi hosili 791,65 mln tonna, 788,64 mln tonna, o’rtacha hosildorligi gettaridan 4,95 tonna va 5,04 tonnani tashkil etgan. (1969-1979 yillarda 108 mln/ga bo’lgan). Hosildorligi gettariga qisqa muddatda 25,7 sentnerdan 50,4 sentnerga yetgan. Umumiy maydonining qariyb yarmi Amerika qit’asida (AQSh, Kanada, Argentina, Braziliya Meksika va boshqa) joylashgan. Qit’alar bo’yicha makkajo’xorini egallagan maydoni quyidagicha taqsimlanadi: Amerika – 44 %, Osiyo – 24 %, Afrika – 17 %, Yevropa – 10 %, Avstraliya – 5 %. Yalpi hosil bo’yicha AQSh dunyoda birinchi o’rinda turadi (taxminan 29,5 mln/ga, hosildorligi – gettaridan 89,0 sentner).

Jahon bo’yicha makkajo’xori ishlab chiqadigan eng yirik mamlakatlariga Braziliya, Meksika, Hindiston, Xitoy, Argentina, Ruminiya va Mustaqil hamdo’stlik mamlakatlari kiradi. Amerika qo’shma

shtatlarining Ayova, Illinoys, Ogayo, Kanzas, Nebraska va boshqa makkajo’xori ekini uchun, iqlim sharoiti qulay bo’lgan shtatlarida bu ekin eng ko’p tarqalgan. Bu shtatlarda AQSh dagi makkajo’xorining 70 % gacha maydoni joylashib 80 % dan ko’p doni ishlab chiqilmoqda. FAO (Xalqaro qishloq xo’jaligi va oziq-ovqat tashkiloti) ma’lumotlariga ko’ra 2002 yilda makkajo’xori dunyo bo’yicha 137 mln gektardan ziyod maydonga ekilgan, uning yalpi don hosili 600 mln tonnani tashkil qilgan.

Ishlab chiqarilayotgan makkajo’xori donining 60 % dan ortig’i sanoatlashgan Shimoliy Amerika va Yevropa mamlakatlari ulushiga to’g’ri keladi, bu yerda uning hosildorligi o’rtacha 54-72 s/ga ni tashkil etadi. (8,21).

FAO ma’lumotlariga ko’ra dunyo bo’yicha makkajo’xorining ekin maydoni hosildorligi va o’rtacha don yetishtirishi. (Atabayeva X. 2012)

1-jadval

Davlatlar	Ekin maydoni, ming ga	Hosil-dorlik, s/ga	O’rtacha don yetishtirish , mln tonna
Dunyo bo’yicha	137549	43.36	596412
Afrika	25392	16.99	43140
Efiopiya	1450	17.93	2600
Keniya	1400	13.21	1850
Nigeriya	3965	13.81	5476
Shimoliy Amerika	40473	72.56	293673
Meksika	8661	21.66	18761
AQSh	29566	89.03	263216
Janubiy Amerika	17919	30.27	53328

Braziliya	11857	27.46	32556
Osiyo	44236	35.07	143053
Xitoy	22543	45.75	103144
O'zbekiston	25	16.0	40
Yevropa	10587	54.24	57422
Ruminiya	2700	15.56	4200
Rossiya	930	13.44	1250
Avstraliya	58	62.93	365

R.U. Yugenxaymer (102) ma'lumoticha AQSh da 70-yil o'rtalarida makkajo'xoridan 500 turdan ortiq asosiy va qo'shimcha mahsulotlar olingan. Bu ko'rsatkich 1996 yilga kelib 1600 taga yetgan. Makkajo'xoridan olinadigan mahsulot turlari chorvachilik sanoatida va oziq-ovqat ishlab chiqarishda foydalaniladi.

I.V. Massino (47) tomonidan O'zbekistonni turli iqlim sharoitida barcha ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan yangi "O'zbekiston 100" duragayi, Respublikaning hamma viloyatlarida, keyinchalik Turkmaniston va Armaniston respublikalarida tumanlashtirilgan.

I.V. Massino, A.I. Massino (43) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Davlat Reyestriga makkajo'xori duragaylarining 20 dan ortiq mahalliy va xorijiy navlari ro'yxatga kiritilgan. Respublikamizda urug' yetishtirish uchun ulardan faqat mahalliy navlarning duragaylari ekilmoqda. O'zbekistonda makkajo'xori gen kolleksiyasidan samarali foydalanish natijasida, makkajo'xorining tezpishar, hosildor, kasallik va zararkunandalarga chidamli yangi nav va duragaylari yaratilmoqda. Shuningdek, makkajo'xorining yangi nav va duragaylarini yaratishda chetdan keltirilgan duragaylar nazorat mahalliy

duragaylar bilan taqqoslanib, eng yaxshi ko'rsatkichlari o'rganilib, makkajo'xori seleksiyasida keng foydalanilmoqda.

Moldaviyada T.S.Chalik makkajo'xorini ertapishar "Moldavskiy 215 MV", "Moldavskiy 257 MV", "Moldavskiy 296 SV" kabi duragaylarni yaratgan va tumanlashtirishga o'z hissasini qo'shgan.

Dunyoda makkajo'xorining yuqori lizinli yertapishar duragaylarini yaratishga o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab e'tibor berila boshlandi.

Amerikalik olimlar tomonidan, makkajo'xori donining oqsil tarkibida lizin moddasi yuqori bo'lган Opeyk 2 genining yaratilishi, makkajo'xori seleksiyasida yangi yo'naliishni yaratdi. Makkajo'xori donining oqsil tarkibida lizin moddasi yuqori bo'lган navlari yo'q.

Tillayev R. (75) ta'kidlashicha lizin moddasi almashtirib bo'lmaydigan aminokislolar guruhiga kiradi. Shu sababli soha seleksionerlari makkajo'xori donining oqsil tarkibida lizin moddasi yuqori bo'lган navlar yaratish uchun ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

G.Ye. Shmarayev(101) ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyaning barcha ilmiy-tadqiqot markazlari makkajo'xori seleksiyasida yangi yo'naliish donini oqsil tarkibida lizin aminokislotsi odatdagidan ko'proq tutuvchi duragaylarni yaratish bilan shug'ullanishgan. Rossiyalik olimlar tomonidan Opeyk 2 geni asosida yuqori lizinli "B 248" va "A 51 S" duragaylari yaratilgan.

N.I. Lixachev, A.I. Borovik o'z tajribalarida Altay o'lkasi iqlim sharoitida "Nart 150 SV", "Obskiy 150 SV", "Kollektivniy 160" va "Omskiy 140" ertapishar duragaylarining ota-onal tizmalarini birlamchi urug'chiligin o'rganishgan. Ular Oltoy o'lkasi mahalliy iqlim sharoitida, ertapishar duragaylardan faqat sug'oriladigan joylaridangina yuqori don hosildorligiga erishishgan. Eng yuqori don hosildorligi lalmi joylarda 50 s/ga bo'lган bo'lsa, sug'oriladigan joylarda 90 s/ga bo'lганligi tajribalarda kuzatilgan.

Bliyev S.G.(10) va boshqalarning fikricha o’z-o’zidan changlatilgan tizma, duragay va navlardan o’zining genotipi va fenotipi bilan, hayotchanligi va mahsuldorligini pastligi bilan harakterlanadi. Ishlab chiqarishda makkajo’xori duragay urug’larini ekishga o’tilishi, ko’pchilik tadqiqotchilarning asosiy e’tiborini duragaylarni o’rganishga sababchi bo’ldi.

Axmedova S., Turaqulov K.(8) larning ilmiy adabiyotlarda duragaylar ona-ota juftlarini yetishtirish agrotexnikasi usullari to’g’risidagi ilk ma’lumotlar 60-yillardan paydo bo’la boshladi.

1.5.Makkajo’xorining agrobiologik xususiyatlari va yetishtirish texnologiyasi.

Makkajo’xorida asosiy ozuqa elementlarining o’zlashtirilishi quruq modda tuplanishi bilan muvofiq holda kechadi. Barglarning ishlashida asosiy rolni azot o’ynaydi. Bu element bilan o’simlikning me’yorida ta’milanishi barg yuzasini, uning ishi davomiyligini oshiradi, o’sish jarayonlarini kuchaytiradi, oqsil sintezini jadallashtiradi.

Azotning yetishmasligi barglarda xlorofillning kamayishiga olib keladi, o’simlik sekin o’sadi, barglar mayda bo’ladi. Azotga eng ko’p talab o’simlikning dastlabki rivojlanish fazalarida (4-5 barg hosil bo’lganda) kuzatiladi. Yosh o’simliklar birinchi oyda gektaridan 3,4 —5,6 kg o’zlashtirilsa, ro’vaklar hosil bo’layotganda ular har kuni shuncha azotni o’zlashtiradi. Azotning eng jadal o’zlashtirilishi ruvaklashga 2 hafta qolganda boshlanadi. Gullashga kelib uning o’zlashtirilishi pasayadi va nisbatan yuqori hosilda mum pishish davrigacha saklanadi. Barglar va poyalarda azotning tuplanishi donning mum pishish fazasigacha saklanadi.

Sug’oriladigan yerlarda azot miqdori o’simlikda va uning organlarida vegetasiya davomida o’sib boradi.

Fosfor.Urug’larning unishi, o’simlikning rivojlanishini tezlashtiradi, qurg’okchilikka va past haroratga chidamlilagini oshiradi. Tuproqda u kam bo’lsa yoki umuman bo’lmasa, reproduktiv organlar hosil bo’lishi boshlanadi va o’simlik o’sishdan to’xtaydi. Makkajo’xorining fosforga bo’lgan o’ta talabchan

davri 2-3 barg hosil bo'lganiga tug'ri keladi. Bu davrda fosforning yetishmasligini kelgusi davrlarda juda ko'p ta'minlash bilan ham qoplab bo'lmaydi. Bu esa hosildorlikning keskin kamayishga olib keladi. Shuning uchun ham sug'oriladigan yerlarda qator oralig'iga kultivasiya bilan fosforli o'g'itlar beriladi.

Kaliy.O'simlikdagi uglevodlar, oqsil almashinuvida faol ishtirok etadi. Tuproqda uning yetishmasligi fotosintez mahsulotlarining barglardan boshqa organlarga o'tishini kamaytiradi, o'simlikning o'sishi to'xtaydi, barglar chetida kuyganga o'xshash dog'lar hosil bo'ladi, so'talar mayda, donlari siyrak bo'ladi. Kaliyli oziqlanishning me'yorida o'tishi o'simlikni qurg'okchilikka, yotib qolishga, zamburug' kasalliklariga chidamlilagini oshiradi, donlar to'la bo'lishini ta'minlaydi. Bu element ro'vakning gullashi davrida eng ko'p o'zlashtiriladi. Sut pishish davridan boshlab o'simlikda kaliy miqdori kamaya boshlaydi.

P. G. Naydin ma'lumoti bo'yicha, 5-7 t/ga hosil bilan makkajo'xori 150—180 kg azot, .50—70 kg fosfor va 150 kg kaliyni olib chiqadi.

Makkajo'xori vegetasiya davrining birinchi yarmida vegetasiya davomida o'zlashtiriladigan 40% azotni, 30 % fosforni, 70 % kaliyni o'zlashtiradi.

Rivojlanish fazalari- unib chiqish, ro'vaklash, so'talarning gullashi, sut, sutmum, mum, to'la donni pishishi. Ertapishar duragaylar va navlar 80-90 kunda, o'rta erta pisharlar 90-100, o'rtapisharlar 100-110, o'rta kechpisharlar 115-130 kunda va undan ortiq muddatda pishib yetiladi.

Al mashlab ekishdagio'rni.Makkajo'xori surunkasiga bir maydonga qayta-qayta ekilishga chidamli.O'zbekistonda makkajo'xori asosan sug'oriladigan yerlarda ekiladi. Uni beda, g'o'za, kartoshka, poliz ekinlari, kuzgi don ekinlaridan keyin joylashtirish yaxshi natija beradi. Lavlagidan keyin makkajo'xori joylashtirilsa fosfatlarning o'zlashtirilishi, oziqlanish sharoiti yomonlashadi. Dukkakli don ekinlaridan keyin makkajo'xorini joylashtirish ham hosildorlikni oshiradi, don sifatini yaxshilaydi.

O'zPITI ma'lumotlarida makkajo'xorini beda bilan qo'shib ekishda tuproq unum dorligi, keyin ekilgan g'o'za hosildorligi oshib tola sifati yaxshilangan. Monokulturaga nisbatan makkajo'xoridan keyin g'o'za hosili 3-4 s/ga oshgan.

Almashlab ekishlarda makkajo'xorini joylashtirish bir gektardan ozuqa birligi chirishini ko'paytiradi, sug'oriladigan yerlar samaradorligini oshiradi.

Makkajo'xori kuzgi bug'doy, kuzgi arpa, kartoshka, poliz ekinlari uchun yaxshi

o'tmishdosh. Uni surunkasiga bir dalada 4-5 yil, qorakuya bo'lmaydigan maydonlarda 10-15 yil o'stirish mumkin. Bu ekinni ferma oldi almashlab ekishlarda, fermaga yaqin maydonlarga ekish, organik o'g'itlarni ko'proq solishga, hosilni yig'ishtirish, saqlash, tashish ishlarini, xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi.

Makkajo'xorini surunkasiga bir maydonga ekish, pufaksimon qorakuya kasalligining ko'payishiga, hosildorlikning pasayishiga olib keladi. Dalada makkajo'xori hosili yig'ishtirilgandan keyin har gektaridan 70-80s ildiz va ang'iz qoldiqlari qoladi va kelgusi yozgacha chirib tuproqda o'simlik o'zlashtira oladigan 50-55 kg azot, 20-25 kg fosfor qo'shiladi.

Tuproqni ishlash. Notekis dalalar tuproqni ishlashdan oldin tekislanadi. Tuproqni asosiy ishlash usuli va chuqurligi o'tmishdosh ekinning xususiyatiga, tuproq madaniy qatlaming qalinligiga, dalani o't bosganlik darajasiga, tuproq turiga, o'tgan yil haydalgan chuqurligiga bog'lik holda belgilanadi.

G'o'zadan bo'shagan maydonlarning haydash qatlami qalin bo'lsa 25-28 sm, ayrim yillari 40-45 sm chuqurlikda kuzgi shudgor qilinadi. Tuproq bir yil chimqirqarli ikki yarusli pluglar bilan 40-45 sm chuqurlikda haydalsa, ikkinchi yili 25-28 sm chuqurlikda uchinchi yili yana 40-45 sm chuqurlikda haydaladi. Shunday haydalish tizimi qo'llanilsa ang'iz qoldiklari, begona o't urug'lari, zararkunandalar g'umbaklari, kasallik manbalari ikki yil davomida tuproq tagida to'da chiriydi, zararsizlantiriladi, tuproq unumдорлиги oshib boradi Kuzgi shudgor respublikamizning shimoliy mintaqasida 20-30 oktyabrdan 30 noyabrgacha, janubiy mintaqalarda 15 dekabrgacha tugallanadi.

Yangi o'zlashtirilgan yerlar birinchi yili 20-22 sm chuqurlikda, keyingi yillari har yili 2—3 sm chuqurlashtirilib haydaladi.

Mexanik tarkibi og'ir, zich gipslashgan qatlami 40-50 sm chuqurlikda joylashgan tuproqlar haydash oldidan 40- 50 sm chuqurlikda maxsus asboblar

bilan yumshatiladi, keyin 25-30 sm chuqurlikda haydaladi.

Kuchli o't bosgan dalalar ni ikki yarusli pluglar bilan 35-40 sm chuqurlikda haydash, begona o'tlarni kamaytiradi, 27 sm chuqurlikda haydalaganiga nisbatan don hosildorligini 10 s/ga oshiradi.

Bedapoyalar haydashdan oldin lushchilnik yoki otvalsiz pluglar bilan 5-8 sm chuqurlikda haydalib beda tuplarining boshchalari qirqiladi. Bir xafadan keyin 30-40 sm chuqurlikda haydaladi. Haydash chukurligi ikkinchi yili 20 - 22 sm, uchinchi yili 30-40 sm bo'ladi.

Don ekinlaridan bo'shagan dalalar 6-8 sm lushchilniklar bilan yumshatiladi, keyin 25-27 sm chuqurlikda haydaladi.

Erta bahorda tuproq yetilishi bilan boronalash o'tkaziladi. Sho'ri yuvilgan, nam to'playdigan sug'orishlar o'tkazilgan dalalar tuprog'i bahorda juda zichlashib ketsa, bunday dalalar chizellanadi yoki otvalsiz pluglar bilan haydalib, boronalanadi.

Shudgor qilinmagan, dala tuprog'i zichlashmagan, o't bosmagan bo'lsa, dala ekishdan bir-ikki kun oldin ikki izda boronalanadi, urug' ekiladigan kun molalanadi. Mola tuproq mexanik tarkibiga bog'liqholda 1-3 yurgaziladi.

Ildizpoyali begonao'tlar bilan ifloslangan dalalar bahorda yaxshilab taroqlanadi, ildizpoyalar yig'ib, yoqib yuboriladi.

Shudgor qilingan dala tuprog'i zichlashib, o't bosgan bo'lsa, ekishdan 6 —8 kun oldin 10—12 sm chuqurlikda kultivasiya yoki chizel qilinadi, ikki izda borona qilinib, mola bosiladi, zarur bo'lsa kuzgi tunlamga qarshi zaharli kimyoviy moddalar ham solinadi.

O'g'itlash. Makkajo'xori o'g'itlarga talabchan. Don hosili 60 —70s, yashil massa hosili 500—700 s bo'lganda, tuproqdan 150-180 kg azot, 60 —70 kg fosfor, 160—190 kg kaliy o'zlashtiriladi.

Sug'oriladigan yerkarda makkajo'xori juda yuqori hosil beradi. Solinadigan organik va ma'danli ug'itlar me'yori rejalahtirilgan hosilga, tuproq agrokimyoviy kartogrammasiga bog'lik holda belgilanadi. Kuzgi shudgordan oldin 40-60 t. chirigan go'ng yoki kompos solish juda yaxshi natija beradi va don hosilini 15-20 s/ga oshiradi.

Ma'danli o'g'itlar samaradorligi sug'oriladigan yerlarda juda yuqori 1 kg NPKhisobiga 18-20 kg don hosili olinishi mumkin.

O'g'it me'yollarini belgilashda balans usulini qo'llash ma'qul. Makkajo'xori 1 s don hosil qilishi uchun 2,2-3,4 kg azot o'zlashtiradi. O'rtacha 3 kg deb olinsa 60 s don hosili olish uchun 180 kg azot talab qilinadi. Xo'jaliklarda go'ng bo'lmasa ma'danli azot, fosfor, kaliy o'g'iti me'yolari oshiriladi.

Makkajo'xori 60 s donhosilqlishi uchun o'rtacha 50-60 kg fosfor o'zlashtiradi. Ma'danli fosforli o'g'itningo'zlashtirilish koeffisiyenti 15-20%.

Sug'oriladigan yerlarda asosiy o'g'itlashda yerni shudgorlashdan oldin gektariga 80—100 kg fosfor, 60—85 kg kaliy va organik o'g'itlar solinadi. Ekishdan oldin gektariga 20 kg azot, 20 kg fosfor, 15 kg kaliy kultivasiya bilan beriladi. Azotli o'g'itlarning 90 kgi birinchi oziqlantirishda beriladi.

Birinchi oziqlantirish uchinchi-turtinchi barglarni hosil bo'lishi bilan beriladi. Ikkinci oziqlantirish 110 kg/ga o'simlikda 7-8 barg hosil bo'lganda o'tkazadi.

Birinchi oziqlantirishda o'g'itlar o'simlik qatoriga yaqin, ikkinchisi egato'rtasiga solinadi. Shunday qilib o'g'itlarning umumiyligi me'yori azot 180-220kg, fosfor-110-120 kg, kaliy 75 -100 kg ni tashkil qiladi.

Oziqlantirish o'tkazilgandankeyinsug'oriladi. Mikroelementlardan bor makkajo'xoriga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Makkajo'xori urug'lari ekishdan oldin tozalanib, kalibrovka qilinadi, dorilanadi. Makkajo'xorining 1-sinf urug'larining unuvchanligi 96%, ikkinchi sinfniki 92% dan kam bo'lmasligi lozim.

Urug'lar Raksil 1,5 kg/t, Ponaktin 2 kg/t, Vitovaks 2-3 sg/t me'yorda dorilanadi. Urug'lar ekish oldidan bor kislotasining 0,01—0,03% marganes sulfatning 0,03-0,05% eritmasi bilan ishlanib ekilganda hosildorlik 14,4 -15,4 s/ga oshgan.

Urug'lar 8-10% ammiakli selitra eritmasiga solinsa puch urug'lar eritmaning yuzasiga qalqib chiqada, yirik, to'la urug'lar cho'kadi. Cho'kkani urug'lar eritmagan olinib 4-5 kun yoyib quritsa, ularning unuvchanligi oshadi.

Urug'larni gidrofobizasiya, inkrustlashda, ular polimer suyuqliklarga solib

olinadi. Bunda urug'lar yuzasini noqulay ob-havo sharoitida, past haroratdan himoya qiladigan parda qoplaydi. Bu ish urug'larni dorilash bilan bir paytda o'tkazilishi qulay.

Gidrofob pardahosil qilish uchun 1 t. urug'ga 111. texnik loroform, 0,5 kg polistrol, 2 kg Ponaktin sarflanadi. Xloroformda polistirol eritib olinadi.

Bahorda ekish tuproq urug' ko'miladigan chuqurlikda 10-12°S qiziganda boshlanadi. Juda erta qilganda urug'lar chirib ketadi, kech ekilganda begona o'tlar o'sishi mumkin. Ekishni maqbul taqvim muddatlari aniqlangan bo'lishi kerak.

O'zbekistonda Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Ekish S3-3,6, SZU-3,6, SZT-3,6 seyalkalarida o'tkaziladi. Kuzdaqator orasi 15 sm, o'simlik oralig'i 3-5 sm bo'ladi.

Makkajo'xori qator oralig'i 60, 70, 80, 90, 100, 120, 140 sm qilib ekilishi mumkin. O'zbekistonda makkajo'xorini qator oralig'i 60, 70, 90 sm qilib ekish keng qo'llaniladi qatorlardagi o'simliklar orasidagi masofa 7—15 sm bo'lishi mumkin.

Tup qalinligi nav yoki duragayningo'suv davriga, ekilishmuddatlariga va boshqa omillarga bog'liq holda o'zgaradi.

Zarafshon vodiysining tipik bo'z tuproqlarida Uzbekskaya -100 navi bahorda don uchun ekilganda maqbul tup qalinligi 60 ming/ga, silos uchun ekilganda Dneprovskiy- 10 TV-150 ming/ga, Uzbeksiy-100—120 ming/ga, ang'izda Uzbekskaya skorospelka navi - 150 ming/ga, Krasnodarskiy-ZOZTV200 ming/ga qalinlikda o'stirilganda olingan.

Makkajo'xori don uchun ekilganda qatorlab, yashil massaga yetishtirilganda pushtaga ekish eng yaxshi natija bergen.

Dneprovskiy - 70 TV duragayi gektarida tup qalinligi 75 mingning bo'lganda don hosili 113 s/ga, 120 ming tupda 92,7 s/ ga bo'lgan, Uzbeksiy - 100 navida, tup qalinligi 60 ming/ ga bo'lganda don hosili 71,3 s/ga, 120 ming bo'lganda 28,6 s/ga tashkil qilgan.

Ekish chuqurligi - odatda erta muddatlarda 5-6 sm bo'ladi. Ekish muddati kechikishi bilan harorat ortadi, urug'larni 10-12 sm chuqurlikka ekish mumkin. Mexanik tarkibi og'ir loy tuproqlarda 4 sm chuqurlikda ekiladi. Yirik

urug'larni mayda urug'larga nisbagan 1-2 sm chuqurroq ekish mumkin.Ekish chuqurligining ortib borishi bilan ekish unib chiqish davri cho'ziladi.

Ko'plab tajribalar makkajo'xori urug'lari 8-12 sm chuqurlikka ekilganda yaxshi natija olinishini ko'rsatadi. Ekish chuqurligi 8-12 sm bo'lganda urug'lar 18-22 sm chuqurlikka ekilgandagina nisbatan don hosili 2,5-13,6, yashil massa hosili 27-132 s/ga oshgan.

Ekish me'yori.Don uchun 1 gektarga 20-25kg, yashil massa chiqarishdan 10 kun oldin, ro'vak chiqargandan keyin 20 kun davomida makkajo'xori suvga juda talabchan bo'ladi. Harorat 30°S oshganda havo quruq bo'lsa, makkajo'xori changlari bir soatdan keyin nobud bo'ladi. So'tada donlar siyrak hosil bo'ladi.

O'suv davridagi sug'orishlar soni va me'yorlari sizot suvlarining joylashishiga, tuproq mexanik tarkibiga va boshqa omillarga bog'liq holda o'zgaradi. Sug'orishlar me'yori o'rtacha 900-1000 m³/ga. Birinchi sug'orish maysalar unib chiqandan keyin 20-25 kuno'rtacha o'tkaziladi.Keyingi sug'orishlar har 10-15 kunda o'tkaziladi.Sug'orishlar soni 4-7 bo'lishi mumkin.Og'ir, sizot suvlar yaqin joylashgan tuproqlarda sug'orish me'yorlari katta, ammo soni kam, sizot suvlar uzoq yengil tuproqlarda esa aksincha bo'ladi.Sug'orishlar egatlab, yomg'irlatib o'tkazilishi mumkin.Makkajo'xori sizot suvlaridan yaxshi foydalanadi. A.Mansurov va D.I.Maxmudov tajribalarida sizot suvlar bir metr chuqurlikda joylashganda VIR-338 TV duragayidan, o'g'itlarqo'llab, umuman sug'ormay 70—80 don, 800—900 s/ga silos massasi hosili olingan.

Begona o'tlarga qarshi kurash.Makkajo'xorichilikda begona o'tlar hosildorligini oshirishdagi asosiy to'siqlardan biri keyingi yillarda urug'larni ekishgacha penitron gerbisidini gektariga 1-2 l, stomp 3-6 kg/ga me'yorida qo'llash bir yillik g'alladosh o'tlar va ikki pallali begona o'tlarga qarshi kurashda yuqori samara bermoqda. Eradikan bir gektarga 4-8 l me'yorida 300l suvga aralashtirilib ekish oldidan purkaladi va darxol tuproqda aralashtiriladi. Bu gerbisidni keyin ekiladigan ikki pallali madaniy o'simliklarga zararli ta'siri yo'q.

Agelon, Mayazin, Simazin, So'tan plyus, Prim-ekstra gerbisidlari ham ekish oldidan tuproqqa beriladi. Ammo ularning keyingi ikki pallali ekinlarga ta'siri

kuchli.O'suv davrida bazagron 2-4 l/ga, benvil 0,6-0,8 l/ga, ardner (22,5%) 1,5 l/ga, titus (25%) - 40 - 50 g/ga qo'llanilishi mumkin.

Yashil massa uchun ikki hosil o'rib olinsa, bo'ladi. Bu usulda qo'shimcha 300-400 s/ga ko'k massa hosili olish SamQXIda makkajo'xorini perko hamda xashaki lavlagi bilan qo'shib ekish bo'yicha ijobiy natijalar olingan. Bu usulda makkajo'xori, xashaki lavlagi yoki perko alohida qatorlarga ekiladi. Makkajo'xori avgust oyida o'rib olinsa, lavlagi oktyabr oyining oxiriga qadar 300-400 s/ga ildizmevahosilili to'playdi. Bunda gektariga 10-14 kg lavlagi urug' sarflanadi. Makkajo'xori urug'i 8-10sm, lavlagi urug'i 4-5 sm chukurlikka ekiladi.O'zbekistonda makkajo'xorini beda bilan qo'shib ekish juda keng tarqalgan.

O'zbekistonda boshoqli don ekinlari 1 mln. gektardan ortiq maydonlarga ekilmoqda. Dalalar hosildan may oyining ikkinchi yarmi, iyundan boshlab bo'shaydi. Ulardan bo'shagan maydonlarga makkajo'xori don va silos uchun ekiladi. Karam, kartoshkadan bo'shagan maydonlar makkajo'xorini takroriy ekishga yaroqli.

Boshoqli don ekinlari mum pishish davrida yengil sug'oriladi. Hosil tez yig'ishtirilib, tuproq qurib ketmasdan 25-30 sm chuqurlikda haydaladi va boronalanadi. Hosil yig'ishtirish cho'zilib ketsa, somonlar olib tikilgandan keyin, dala gektariga $500-600 \text{ m}^3$ me'yorda sug'oriladi. Tuprok mexanik tarkibiga ko'ra 3-6 kunda yetiladi.Keyin chizellanib, boronalanadi, mola bosiladi. Ekish oldidan 10-15 t chirigan go'ng, 150 — 200 kg/ga ammofos, 150 kg/ga kaliy tuzi solinadi.

O'suv davrida birinchi azotli oziqlantirish 50 kg/ga ikkinchisi 60 kg/ga me'yorda o'tkaziladi. O'suv davrida 3-4 sug'orish o'tkaziladi. Mavsumiy sug'orish me'yori $2400-3200 \text{ m}^3/\text{ga}$.

Makkajo'xorining saralangan, dorilangan urug'lari ekiladi. Ang'izga makkajo'xorini Samarkand, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax viloyatlarida 1—20 iyunda, Qashqadaryo, Surxondaryoda 25 maydan 10 iyungacha, Farg'ona vodiysida 5-20 iyunda don va silos uchun ekish mumkin. Bunda makkajo'xori qancha erta ekilsa, shuncha yuqori hosil beradi.

Zarafshon vodiysida Uzbekskaya skorospelka navi ang'izga ekilganda eng

yuqori, yashil massa hosili gektariga 150 ming tup qalinlikda 506,3 s/ga, Krasnodarskiy-301 TV duragayi 607,5 s/gani tashkil qilgan. Shu nav va duragay don uchun yetishtirilganda tup qalinligi 75 va 90 ming/ga bo'lganda hosildorlik muvofiq holda 70,6 va 80,2 s/ga bo'lgan.

Ekish me'yori nav va duragaylarning biologik xususiyatlariga hamda ekilish maqsadiga bog'lik holda o'zgaradi. O'rtacha 25-40 kg/ga urug' ekiladi. Ekish chuqurligi 8-12 sm.

Yozda xavo issiq bo'lganligi uchun urug'lar ekilgandan keyin 4-6 kunda unib chiqadi. Makkajo'xori qisqa kuno'simligi, shuning uchun ang'izga ekilgan makkajo'xori bahorda ekilganga nisbatan 10-15 kun erta yetiladi. O'suv davrida qator oralari 2-3 kultivasiya qilinadi.

Makkajo'xori silos uchun doni dumbul pishiqlik davrida yig'ishtiriladi. Bu davrda yashil massa namligi 65-70 % bo'lib, silos bostirish uchun eng qulay. Silos va yashil massa hosili KSK-100, Maral-2,6, SK-2,6A mashinalarida o'rildi. O'zbekiston sharoitida bahorda ekilgan makkajo'xori doni 70—75% so'talar to'la yetilganda o'rib boshlanadi. Bu davrda makkajo'xori bargi va poyalarning namligi 63—65% bo'ladi.

Makkajo'xorini donuchun Xerson-200, KSKU-6, shuningdek qayta jihozlangan SK-5, "Keys" kombaynlarida o'rildi, bir yo'la tozalanib, poya va barglari maydalanadi. O'rim 10—12 kunda tugallanishi lozim.

Urug'lik makkajo'xori so'talari yoki don holida saqlanadi. So'talar namligi 16 %, donniki 13 % dan oshmasligi kerak.

Ang'izga ekilgan makkajo'xori qirov vasov uq tushgangaqadar yig'ishtirib olinadi. Sovuq urgan poya va barglar ozuqaviy qiymati keskinpasayadi.

Azotli o'g'itlar ammiakli selitra – NH₄NO₃ (34,6% N), fosforli o'g'it murakkab kompleks o'g'it bo'lgan ammofos – NH₄H₂PO₄ (11% N va 46% P₂O₅), kaliyli o'g'it kaliy xlorid - KCl (60% K₂O) shaklida, organik o'g'it sifatida yarim chirigan go'ng qo'llanildi. Uning tarkibida 0,5% N, 0,25% P₂O₅, 0,6% K₂O bor.

O'zbekiston 420 VL duragayining tavsifi

“Erkin” ilmiy ishlab chiqarish firmasining seleksion duragayi. 2002 yildan Toshkent viloyati bo'yicha asosiy ekin sifatida don uchun Davlat reyestriga kiritilgan. Mualliflar: L.V. Radochinskaya, I.V. Massino, A.I. Massino, S.M. Ahmedova [2001].

Oddiy duragay. Yuqori lizinli duragaylarga mansub. Ikkala avlod tizmalari gen Opeyk-2 bo'yicha mutantdir. Donining oqsil tarkibida almashtirib bo'lmaydigan yuqori lizin aminokislotasi mavjud .

Urug'chilik fertil asosida onalik tizmalarini ro'vagini uzib tashlash yo'li bilan olib boriladi. Poyadagi barglar soni 18-19 ta. O'simlik balandligi 257-272 sm, birinchi so'tani birikish balandligi 90-96 sm. 1 ta o'sim-likdagi so'talar soni 1,1 dona. So'tasi kuchsiz rivojlangan konussimon, uzunligi 19,7-20,8 sm . So'tasidagi don qatori 16 ta. Bitta so'ta og'irligi 252-267 g. Doni tishsimon, och-sariq rangda. Endospermasi unli. So'tasining o'zagi qizil. 1000 ta donini vazni 388,8 g. O'rtacha don hosildorligi Chinoz nav sinash shaxobchasida gektaridan 80,0-90,0 s/ni tashkil etdi, yuqori hosil 119,2 s/ga teng. O'rtapishar. O'rtacha 102 kunda pishadi. Duragayning don chiqishi yaxshi, yotib qolishga bardoshli, qishloq xo'jalik kasalliklari va hashoratlariga chihamli. Duragayning oziqaboplilik xususiyati yaxshi. Donidagi lizin miqdori, 100 g oqsil tarkibida 4,38 mm ga teng.

II-Bob. TADQIQOT NATIJALARI

2.1. O`simlik balandligi va birinchi so`tani joylashishiga azotli o`g`it me`yorlari hamda ko`chat qalinligini ta`siri.

Makkajo`xori o`simligining o`sishi va rivojlanishini kuzatish, qator oralariga ishlov berish, mineral o`g`itlar qo`llash, sug`orishni to`g`ri tashkillashtirish va don uchun hosilni yig`ishtirish muddatlarini hisobga olgan holda texnologik jarayonlarni o`tkazish tadqiqotning aniq kalendar rejasini tuzish imkonini beradi. Xulosa qiladigan bo`lsak, navlarni o`stirish dalasida asosiy don hosilini ta`minlovchi ro`vak chiqarish va popuk chiqarishining uzoq davom etish qonuniyatlari bir necha omillarga bog`liqligi aniqlandi. Birinchisi navlash dalasida o`simlik ko`chat qalinligini me`yordan oshib borishi yorug`lik va quyosh issiqligidan etarlicha foydalana olmaydi. Ikkinchisi azotli o`g`itni me`yordan oshib borishi makkajo`xori o`simligida barg massasini ko`payishiga, sut pishish va mum pishish fazasini uzoq bo`lishiga sababchi bo`ladi. Bu esa don pishish davriga ta`sir ko`rsatadi.

Makkajo`xori o`simligining o`sish tezligini, uning turli rivojlanish davrlaridagi tadqiqot natijalarini tahlili azotli o`g`it st 120 kg/ga va ko`chat qalinligi st 60 ming/ga – 80 ming/ga ortganda o`simlik balandligi o`rtacha – 165-176 sm gacha, azotli o`g`it 150 kg/ga va ko`chat qalinligi st 60 ming/ga – 80 ming/ga bo`lgan o`simlik balandligi – 169-180 sm gacha, azotli o`g`it 180 kg/ga va ko`chat qalinligini st 60 ming/ga – 80 ming/ga ortishi o`simlik balandligini o`rtacha – 174-187 sm gacha uzun bo`lishi kuzatildi. Olingan ma`lumotlarga ko`ra o`rtacha o`simlik balandligiga erishishda azotli o`g`it 150 kg/ga va ko`chat qalinligi 70 ming/ga bo`lganda eng maqbul deb aniqlandi.

SHuningdek, o`simliklarda birinchi so`tani joylashish balandligini ko`chat qalinligi 80 ming/ga va azotli o`g`it 180 kg/ga berilganda kuzatildi. Xulosa qiladigan bo`lsak, asosiy don hosilini ta`minlaydigan birinchi so`taning baland bo`lishiga o`simliklarning zichlashtirib ekilishi bo`lsa, ikkinchi tomondan azotli

o`g`itni me`yordan oshib borishi ta`sir ko`rsatdi. SHunday qilib, navlash dalasida birinchi so`taning o`rtacha joylashish ko`rsatkichi uchun eng maqbuli azotli o`g`it 150 kg/ga va ko`chat qalinligi 70 ming/ga bo`lgan variant deb topildi.

O`suv davri va biometrik ko`rsatkichlar. 2.jadval.

Azot o`g`iti me`yori, kg/ga	Ko`chat qalinligi, ming/ga	Don pishish davri, kun	O`simlik balandligi, sm	Birinchi so`tani joylashishi, sm	Ko`chat saqlan- uvchanligi, (%)
Fon + N ₁₂₀	60	101	165	64,4	98,1
	70	104	170	69,4	97,1
	80	106	176	75,2	96,5
Fon + N ₁₅₀	60 st	103	169	67,4	98,2
	70	105	174	72,6	97,5
	80	108	180	77,3	97,1
Fon + N ₁₈₀	60	104	174	71,7	97,3
	70	107	180	76,0	96,9
	80	110	187	79,7	96,4

Olib borilgan kuzatishlarda o`simliklarning rejadagi ko`chat qalinligini saqlanib qolinishi, har bir yil iqlim sharoitiga bog`liq bo`lishini kuzatildi. Natijalarni tahlilida nihollarning unib chiqqanidan hosilni yig`ishtirib olish davrigacha bo`lgan davrda saqlanib qolgan o`simliklar soni shuni ko`rsatadi, o`simliklarning st 60 ming/ga – 80 ming/ga zichlashtirish olib borilgan kuzatishlarda azotli o`g`it me`yorini oshib borishi st 60 ming/gada – 0,8%, 70 ming/gada – 0,2% va 80 ming/ga qalinlikda – 0,1% gacha o`simlikning saqlanib qolishini kamayishiga ta`sir ko`rsatdi. Eng ko`p ko`chat qalinligini saqlanishi,

o`simliklarning ko`chat qalinligi st 60 ming/ga va azotli o`g`it me`yori 120 kg/ga bo`lgan variantda kuzatildi. Bizning xulosamizga ko`ra, o`simliklarning ko`chat qalinligini saqlanuvchanligini kamayishi azotli o`g`it 180 kg/ga va ko`chat qalinligini 80 ming/ga zichlashtirib ekilishiga bog`liq, bu holat ko`chatlarning nimjon bo`lishiga, qator orasiga ishlov berishda (qo`lda va mehanizatsiya yordamida) sinishi, shamol yordamida yotib qolishiga olib keladi.

2.2. SHerzod navi so`ta o`lchamlari hamda so`tadagi ko`rsatkichlariga azotli o`g`it me`yorlari va ko`chat qalinligini ta`siri.

Azotli o`g`it me`yorlari va har hil ko`chat qalinligining o`zgarishi so`ta o`lchamlariga ham o`z ta`sirini ko`rsatdi. Tadqiqot natijalarini tahlilida azotli o`g`it st 120 kg/ga va ko`chat qalinligi st 60 ming/ga – 80 ming/ga ortishi so`taning uzunligi o`rtacha 15,7-14,7 sm qisqargan bo`lsa, azotli o`g`it 150 kg/ga va ko`chat qalinligi st 60 ming/ga – 80 ming/ga ortishi so`taning uzunligi o`rtacha 16,2-15,3 sm qisqardi. Uchinchi fonda esa azotli o`g`it 180 kg/ga va ko`chat qalinligi st 60 ming/ga – 80 ming/ga ortishi so`taning uzunligi o`rtacha 15,3-14,1 sm qisqarishi kuzatildi. Olingan ma`lumotlarga ko`ra o`rtacha so`ta uzunligiga erishishda azotli o`g`it 150 kg/ga va ko`chat qalinligi 70 ming/ga bo`lganda eng maqbul deb aniqlandi. SHuningdek, o`rganilayotgan omillarning so`taning diametriga ta`sirini ham o`rgandik. Olingan ma`lumotlar shuni ko`rsatdiki, bu erda ham azotli o`g`it va o`simlik ko`chat qalinligini me`yorida oshib borishi so`taning diametriga salbiy ta`sir ko`rsatdi. O`rtacha uch yillik va har bir yillik tajribalarda ko`rinib turibdiki, eng past ko`rsatkich ko`chat qalinligi 80 ming/ga va azotli o`g`it 180 kg/ga bo`lganda kuzatildi. Xulosa qiladigan bo`lsak, asosiy don hosilini ta`minlovchi so`ta o`lchamining kamayish qonuniyatları o`simliklarning zichlashtirib ekilishi natijasida quyosh issiqligidan etarli foydalana olmasligi bo`lsa, ikkinchi tomondan azotli o`g`itini me`yordan oshib borishi makkajo`xori o`simligida barg massasini ko`payishiga va ko`k massani ortib ketishiga sababchi bo`ladi.

Olib borilgan kuzatishlarda azotli o`g`it me`yorlari va ko`chat qalinligini so`ta o`lchamlariga o`z ta`sirini o`rganish bilan birga ushbu omillarni so`ta uzunligi hamda so`ta aylanasidagi donlar soniga ta`sir ko`rsatishini ham aniqladik. O`rtacha uch yillik va har bir yillik tajribalarda ko`rinib turibdiki, so`ta uzunligi va aylanasidagi mavjud donlar soni azotli o`g`it 180 kg/ga va o`simlik ko`chat qalinligi 80 ming/ga bo`lgan variantda eng kam bo`lishi aniqlandi. Olingan ma`lumotlarni tahlili shuni ko`rsatadiki, makkajo`xorining SHerzod navi onalik tizmasining so`ta uzunligi va aylanasidagi tizmalanadigan donlar soni uchun eng maqbولي azotli o`g`it me`yori 150 ming/ga va o`simlik ko`chat qalinligi 70 ming/ga bo`lgan variant deb topildi.

Olib borilgan kuzatishlarda azotli o`g`it me`yori va ko`chat qalinligini so`ta o`lchamlari, so`ta uzunligi va aylanasida hosil bo`lgan donlarga o`z ta`sirini o`rganish bilan birga, ushbu omillarni asosiy hosildorlikni ta`minlaydigan bitta so`tada hosil bo`ladigan jami donlar soniga ta`sir ko`rsatishini ham o`rgandik. O`rtacha uch yillik va har bir yillik tajribalarda ko`rinib turibdiki, so`ta uzunligi va aylanasidagi mavjud donlar soni azotli o`g`it 180 kg/ga va o`simlik ko`chat qalinligi 80 ming/ga bo`lgan variantda eng kam bo`lishi aniqlandi.

3-jadval.

So`ta ko`rsatkichlari va bitta so`tadagi donlar soni, sm va donada

Azot o`g`iti me`yori, kg/ga	Ko`chat qalinligi, ming/ga	So`ta uzunligi, sm	So`ta diametri, sm	So`ta uzunligidagi donlar soni	So`ta aylanasisida gi donlar soni	Bitta so`tadagi jami donlar soni
Fon + N ₁₂₀ st	60	15,7	4,4	39,7	15,1	600
	70	15,5	4,3	38,5	15,1	584
	80	14,7	4,1	36,3	14,0	511
Fon + N ₁₅₀	60 st	16,2	4,5	40,3	15,5	627
	70	15,9	4,4	39,4	15,5	613
	80	15,3	4,1	35,2	14,9	526
Fon + N ₁₈₀	60 st	15,3	4,2	38,6	14,8	575
	70	14,8	4,2	37,4	14,2	534
	80	14,1	3,9	35,2	13,8	489

Olingan ma`lumotlarni tahlili shuni ko`rsatadiki, makkajo`xorining yuqori lizinli SHerzod navi onalik tizmasining bita so`tasidagi jami donlar soni uchun eng maqbولي azotli o`g`it me`yori 150 kg/ga va o`simlik ko`chat qalinligi 70 ming/ga bo`lgan variant deb topildi.

2.3. SHerzod navi urug' xususiyati va hosildorligiga azotli o`g`it me`yorlari va ko`chat qalinligini ta`sir.

SHerzod navini urug' hosildorligi birinchi fonda azotli o`g`it st 120 kg/ga va o`simlik ko`chat qalinligini st 60 ming/ga – 80 ming/ga ortishi urug' hosildorligini

o`rtacha 28,9-34,7 ts/ga ko`paygan bo`lsa, ikkinchi fonda urug' hosildorligini 34,2-42,7 ts/ga va uchinchi fonda ham urug' hosildoriligin 37,2-42,6 ts/ga ko`payganini ko`rishimiz mumkin. O`rtacha uch yillik va bir yillik tajribalarda ko`rinib turibdiki, navning nisbatan eng past urug' hosildorligi va konditsion hosildorligi azotli o`g`it 180 kg/ga va o`simlik ko`chat qalinligi st 60 ming/ga bo`lgan variantda kuzatildi. Olingan ma`lumotlarning tahlili shuni ko`rsatadiki, SHerzod navini urug' hosildorligi uchun eng maqbولي azotli o`g`it me`yori 150 kg/

Laboratoriya sharoitida urug'larni ko`karish quvvati va unuvchanligini azotli o`g`it va ko`chat qalinligini me`yоридан oshib borishi urug'likning sifat ko`rsatkichlariga salbiy ta`sir ko`rsatdi. Ya`ni, urug'likning sifat ko`rsatkichlari azotli o`g`it 180 kg/ga va ko`chat qalinligi 80 ming/ga bo`lgan variantda eng kam bo`lishi aniqlandi. Xulosa qiladigan bo`lsak, ko`chat qalinligi nafaqat o`simliklar fenologiyasi, vegetatsiya davri, o`simlik saqlanuvchanligi va balandligiga balki 1000 ta urug' og'irligi, donning ko`karish quvvati va unuvchanligiga ham kuchli ta`sir qilishi aniqlandi. Ma`lumotlarning tahlili shuni ko`rsatadiki, SHerzod navining ekishga yaroqlilik ko`rsatkichlari uchun eng maqbولي azotli o`g`it me`yori 150 kg/ga va ko`chat qalinligini 70 ming/ga bo`lgan variantda kuzatildi.

Yuqori lizinli SHerzod navining ko`chat qalinligi 60-70 ming/ga bo`lganda so`talardagi donlar yirik bo`lib, 1000 ta urug' og'irligi ham ortib boradi, o`simlik ko`chat qalinligi 80 ming/ga bo`lganda bu ikki ko`rsatkich ancha pasayadi

Azotli o`g`it me`yorini oshib borishi, 1000 ta urug' og'irligiga faqat 60-70 ming/ga ko`chat qalinligidagina ijobiy ta`sir ko`rsatishi kuzatildi. Xulosa qiladigan bo`lsak, SHerzod navining yuqori 1000 ta urug' og'irligiga erishish uchun ko`chat qalinligi 70 ming/ga va azotli o`g`it me`yori 150 kg/ga bo`lishi eng maqbولي variant deb topildi.

Urug' hosildorligi va urug'likning ekishga yaroqliligi 4.jadval.

Azot o`g'iti me`yori, kg/ga	Ko`chat qalinligi, ming/ga	Urug' hosildor-ligi, ts/ga	Ko`karish kuchi, %	Unuvchanlik qobilyati, %	1000 don og'irligi, g
Fon + N ₁₂₀ st	60 st	28,9	97,0	98.1	196
	70	34,7	94,9	95.9	194
	80	33,1	92,9	94.0	192
Fon + N ₁₅₀	60 st	34,2	98,8	99.2	198
	70	42,7	96,6	97.8	195
	80	38,7	94,3	95.5	193
Fon + N ₁₈₀	60 st	37,2	94,6	95.9	194
	70	42,6	92,7	93.7	192
	80	40,2	90,5	91.9	190

Ilmiy tadqiqot ishimizda azotli o`g'it me`yorlari va o`simlik ko`chat qalinligini dala sharoitida urug'likning sifat ko`rsatkichlariga ta`sir ko`rsatishini o`rganilgan. Tajriba davomida, azotli o`g'it 180 kg/ga va o`simliklar ko`chat qalinligini 80 ming/ga bo`lishi, urug'likning dala sharoitida unuvchanligiga salbiy ta`sir ko`rsatadi. O`rtacha uch yillik tajriba ma`lumotlariga ko`ra, dala sharoitida urug'lik xususiyatini unuvchanlik qobilyati azotli o`g'it 180 kg/ga va o`simlik ko`chat qalinligi 80 ming/ga bo`lgan variantda eng kam ko`rsatkichga ega bo`ldi. Xulosa qiladigan bo`lsak, SHerzod navining dala sharoitida urug' unuvchanligi, eng maqbul azotli o`g'it me`yori 150 kg/ga va ko`chat qalinligi 70 ming/ga bo`lishi aniqlandi. Quyidagi jadvaldan ko`rinib turibdiki, dala sharoitida o`simliklarni

ko`chat qalinligi nafaqat vegetatsiya davri, ko`chat saqlanuvchanligi va o`simgilik balandligiga balki, urug'likni unuvchanligiga ham ta`sir ko`rsatishi aniqlandi.

SHerzod navning urug'lik xususiyati 5-jadval

Azot o`g`iti me`yori, kg/ga	Ko`chat qalinligi, ming/ga	Dala sharoitida urug' unuvchanligi, %	O`suv davri kuzatuvlari, kun	Don hosildor-ligi, ts/ga
Fon + N ₁₂₀ st	60 st	89,4	103	83,2
	70	85,8	103	80,3
	80	81,6	105	75,2
Fon + N ₁₅₀	60 st	91,7	104	87,0
	70	87,8	105	85,0
	80	83,5	107	81,8
Fon + N ₁₈₀	60 st	86,2	106	82,1
	70	83,4	107	79,3
	80	79,5	108	77,1

Birinchi fonda azotli o`g`it st 120 kg/ga va o`simgilik ko`chat qalinligi st 60 ming/ga – 80 ming/ga oshganda urug' xususiyati hosildorligi o`rtacha 2,9 - 8,0 ts/ga kamaygan bo`lsa, ikkinchi fonda azotli o`g`it 150 kg/ga urug' xususiyati hosildorligi 2,0-5,2 ts/ga va uchinchi fonda 180 kg/ga urug' xususiyati hosildorligi 2,8-5,0 ts/ga kamayishini ko`rishimiz mumkin. Tajriba davomida azotli o`g`it va ko`chat qalinligining me`yordan oshib borishi so`tadagi donlar sonini hosil bo`lishiga salbiy ta`sir ko`rsatdi. O`rtacha uch yillik va bir yillik tajriba natijalarida ko`rinib turibdiki, SHerzod navning urug' xususiyati hosildorligi azotli o`g`it 180

kg/ga va ko`chat qalinligi 80 ming/ga bo`lgan variantda eng kam bo`lishi aniqlandi .

**III.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT
MIRZIYOYEVNING OLIY MAJLISGA MUROJAATNOMASIDA
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASI XODIMLARIGA BELGILAGAN
VAZIFALARI**

Ma'lumki, hozirgi kunda yurtimizda 51 foizdan ziyod aholi qishloq joylarda yashaydi. Biroq qishloq xo'jaligi mahsulotlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 17 foizdan oshmaydi. Agrar soha mahsulotlarini qayta ishlash hajmi esa 10 foizga ham yetmaydi. Holbuki, rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 50 foizdan ortiqni tashkil etadi. Shu munosabat bilan **qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish bo'yicha kompleks dastur** ishlab chiqish lozim.

Ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal etish, genetik modifikatsiya qilingan mahsulotlar yetishtirmaslik bo'yicha qat'iy nazorat o'rnatishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. So'nggi yillarda mamlakatimiz bozorlarida import meva-sabzavot mahsulotlari ko'payib borayotgani bizni albatta hushyorlikka chaqirishi kerak. Bunday holatning oldini olish uchun, avvalo, yo'qolib borayotgan qadimgi navlarni tiklash, seleksiya ishlarini oqilona va samarali yo'lga qo'yish, sohaga ilm-fan yutuqlari, innovatsion ishlanmalarni keng joriy etishimiz zarur.

Ma'lumki, mamlakatimiz to'qimachilik sanoati 1 million 400 ming tonnagacha paxta tolasini qayta ishlash imkoniyatiga ega. Bu respublikamizdagи tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilar ehtiyojini to'liq qoplay oladi. Lekin paxta tolasini qayta ishlash sanoatini boshqarishda ko'pgina muammolar mavjud. Bu esa paxta xomashyosini ishlab chiqarish va qayta ishlashda rentabellikning pasayishiga olib kelmoqda. Shu munosabat bilan sohadagi muammolarni hal etish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni yanada rag'batlantirishga oid alohida farmon qabul qilindi. Bugungi kungacha o'zimizning to'qimachilik korxonalarimizga paxta xomashyosini faqat "O'zpaxtasanoat" aksiyadorlik jamiyati orqali sotar edik. Farmonga muvofiq to'qimachilik korxonalari paxta xomashyosini endi to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnoma asosida bevosita fermerlardan sotib olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Navoiy, Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida paxta-to‘qimachilik klasterlarini yaratish doirasida paxta xomashyosini bozor talablari asosida yetishtirish, narxnavoni shakllantirish va sotishni tashkil etish bo‘yicha tajriba boshlandi. Kelgusida bunday ijobiy tajribani butun mamlakatimiz miqyosida joriy qilishni bugun hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Chorvachilik sohasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, qoramol va parranda sonini ko‘paytirish, bu borada sifat va mahsuldorlikka erishish uchun yetarli sharoit yaratishimiz zarur. Yaqin istiqbolda har bir tumanda ixtisoslashtirilgan bo‘rdoqichilik komplekslari, yuqori texnologik parrandachilik fabrikalari, shuningdek, issiqxona xo‘jaliklari tashkil etilishi lozim.

Biz hozirgi vaqtda 1,5-2 milliard dollar miqdorida meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilmoqdamiz. Lekin ushbu sohada yiliga 10-15 milliard dollar mahsulot eksport qilish imkoniyati mavjud. Mahsulot tayyorlash va eksport qilishda “O‘zagroeksport” aksiyadorlik jamiyati, birjalar, agrofirmalar va ulgurji kompaniyalar katta rol o‘ynashi lozim.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini samarali realizatsiya qilish juda muhim masaladir. Shu maqsadda fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar hajmi va miqdori haqidagi ma’lumotlarning yagona bazasini yaratish zarur.

Shu o‘rinda **hududlarni jadal iqtisodiy rivojlantirish** haqida ham qisqacha to‘xtalib o‘tmoxchiman. Bu borada mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari, imkoniyat va javobgarligini kengaytirish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

IV.2017-2021 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINI RIVOJLANTIRISHNING BESHTA USTUVOR YO'NALISHI BO'YICHA XARAKATLAR STRATEGIYASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-son Farmoni bilan tasdiklangan «**2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasi»da modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish bo'yicha quyidagi vazifalarga etibor qaratilgan.**

Strategiya loyihasi dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o'rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo'yicha ishlab chiqildi. Hujjat internetda e'lon qilinib, ekspertlar va jamoatchilikning keng muhokamasidan o'tdi.

Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo'yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi. Xususan, 2017 yil-Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili deb e'lon qilindi.

2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha xarakatlar strategiyasi (quyida-yanada bat afsil)

-davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

-qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini

